

SHARQ GAVHARI XORAZM VOHASIDAGI YANGILANISHLAR O‘ZBEKISTON O‘Z YO‘LIDAN DADIL BORAYOTGANI, XALQIMIZ BUNYODKORLIK RUHI BILAN YASHAYOTGANINING AMALDAGI IFODASIDIR

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev hududlar rivoji va aholi hayoti bilan yaqindan tanishish, yangi istiqbolli rejalarni belgilash maqsadida 1-may kuni Xorazm viloyatiga keldi.



Bu o‘lka qadim tarixi va madaniyati bilan turizm jozibadorligiga ega. Hozirgi iqtisodiy ravnaqi tufayli ishbilarmonlik tashriflari ham ko‘paymoqda. Lekin Urganch xalqaro aeroporti aholi va mehmonlar talabiga to‘la javob bermayapti. U soatiga 400 nafar yo‘lovchiga xizmat ko‘rsata oladi, xolos. Bu qatnovlarni ko‘paytirish imkonini bermayapti. Shuning uchun aeroportni modernizatsiya qilish va boshqaruvga berish ko‘zda tutilgan.

Tashrif chog‘ida davlatimiz rahbariga ushbu loyihaning borishi haqida axborot berildi.

Bu borada 2024-yil 1-avgustda e‘lon qilingan ochiq tender ikki bosqichda o‘tkazilib, unda Fransiya, Koreya, Turkiya, Qatar kabi davlatlardan sakkizta kompaniya

ishtirok etdi. Yakunda idoralararo tender komissiyasining qarori bilan Koreya Respublikasining Incheon International Airport Corporation kompaniyasi g‘olib deb topildi.

Prezidentimiz ushbu kompaniya va loyiha rahbarlari bilan suhbatlashdi.

Kompaniya prezidenti Incheon xalqaro aeroporti sig‘imi bo‘yicha dunyoda uchinchi o‘rinda turishi, servis bo‘yicha yetakchilardan biri ekanini aytdi. Urganch kompaniyaning ikkinchi aeroporti bo‘lishini ta’kidlab, uni yangilash va boshqarish rejalarni ma’lum qildi.

Davlatimiz rahbari bunday ilg‘or kompaniya bilan sheriklikdan xursandligini ta’kidlab, o‘zaro manfaatli hamkorlikni kengaytirish bo‘yicha fikrlarini bildirdi.

— Xorazmda ko‘plab zamonaviy mehmonxonalar, dam olish va savdo markazlari barpo etyapmiz. Kelajakda sayyohlar oqimini 5 millonga yetkazishni maqsad qilganmiz. Buni aeroport bilan hamohang qilsak, o‘zaro manfaatli bo‘ladi, daromad ko‘payadi, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Xorijiy aviakompaniyalar bilan hamkorlikda samolyotlar olib kelib, tashuvlarni ko‘paytirish bo‘yicha fikr almashildi. Ushbu sheriklikdan foydalanib, servis bo‘yicha Koreya tajribasini o‘rganish, mutaxassslarimizni o‘qitish va malakasini oshirish zarurligi ta’kidlandi.

Loyihaning umumiy qiymati 223 million AQSH dollari bo‘lib, uning doirasida yangi uchish-qo‘nish yo‘lagi, yo‘lovchi va

yuk terminallari qurish, “ICAO” talablariga javob beruvchi yoritish-signal qurilmalari o‘rnatish, maxsus texnikalar xarid qilish ko‘zda tutilgan.

Qurilish-rekonstruksiya ishlari 2025-2027-yillar davomida amalga oshiriladi. Bularning natijasida aeroport Boeing 747 va Airbus 350 kabi yirik havo kemalarini qabul qilish imkoniga ega bo‘ladi. Aerovokzalning umumiy maydoni 39 ming kvadrat metrga yetib, soatiga 1 ming 300 nafar yo‘lovchiga xizmat ko‘rsatish quvvati yaratiladi.

Umuman, bunday zamonaviy infratuzilma orqali Urganch aeroporti eng qulay yo‘nalishlardan biriga aylanadi. Xorazmning xorijlik sayyohlar uchun jozibadorligini oshirishga hamda mamlakatimiz aviatsiya sohasini rivojlantirishga hissa qo‘shadi.

Bo‘ljak yangi terminal loyihasi ham taqdimot qilindi. Prezidentimiz uning ichki va tashqi qiyofasida milliy ruhni aks ettirish bo‘yicha tavsiyalar berdi.

Shu yerda davlatimiz rahbari jurnalistlar bilan ham muloqot qildi. Xorazmga tashrifdan maqsad yangi marralarni belgilab, iqtisodiyot ko‘rsatkichlarini yanada oshirish, viloyatda yashayotgan 2 milliondan ziyod aholining sharoitini yaxshilash, ish o‘rinlari ochib, odamlarning daromadini ko‘paytirish ekani ta’kidlandi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Al-Xorazmiy shaharchasining qurilishini ko‘zdan kechirdi.

Davlatimiz rahbari 2022-yil avgustda ushbu shaharcha poydevoriga tamal toshi qo‘ygan edi. O‘tgan yillarda muhandislik tarmoqlari tortilib, 1 ming 773 ta xonadonli 72 ta ko‘p qavatli uy foydalanishga topshirilgan. Bu yil mingta xonadonli yana 28 ta turar joy qurilishi rejalashtirilgan. Bu yerda jami 5 mingdan ortiq xonadon bo‘ladi.

Shaharcha Urganch xalqaro aeroporti yaqinida, 130 gektardan ziyod hududda bunyod etilmoqda. Samolyotlar tushgan mehmonlarning ko‘z o‘ngida avvalo mana shu go‘zal maskan namoyon bo‘ladi. Shaharcha markazida Xorazmiy bobomizning muazzam haykali o‘rnatiladi.

Prezidentimizga mazkur haykal loyihasi taqdimot qilindi.

Haykal shaharchada barpo etilayotgan 20 gektarlik bog‘ning kirish qismida o‘rnatiladi. Uning balandligi 22 metr, poydevori bilan birga 30 metrdan ziyod bo‘ladi.

Mutasaddilarga monumentni ham bunyodkorlik, ham ma’no jihatidan takomillashtirish, shaharchada yashilikni ko‘paytirish bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi.

Kuni kecha Prezidentimiz Al-Xorazmiy universiteti va ixtisoslashtirilgan maktab tashkil etish bo‘yicha qaror imzoladi. Bu universitetda 3 ta: matematika va informatika, aerokosmik texnologiyalar muhandisligi hamda sun‘iy intellekt fakultetlari bo‘ladi. O‘quv jarayonlari “Yangi O‘zbekiston” universitetining tajribasi asosida, Birlashgan Arab Amirliklari, Xitoy, Buyuk Britaniya kabi davlatlarning nufuzli oliy ta’lim tashkilotlari bilan hamkorlikda tashkil etiladi. Qabulni 2025-2026-o‘quv yilidan boshlash rejalashtirilgan. Jami talabalar soni 4-6 ming atrofida bo‘lishi ko‘zda tutilgan.

Shaharcha hududida Toshkentdagi Muhammad al-Xorazmiy maktabining filiali ham tashkil etiladi. Unga 4-sinf bitiruvchilari tanlab olinadi. Ta’limning yakunlovchi 2 yili muhandislikka boshlang‘ich tayyorgarlikka qaratiladi.

Shuningdek, Al-Xorazmiy shaharchasida texnopark va ofislar, tibbiyot va madaniyat markazlari, xiyobonlar, maktab va bog‘chalar, sport majmualari, savdo va maishiy binolar bo‘ladi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Xorazm viloyatiga tashrfi doirasida Xonqa tumanida barpo etilgan mebelsozlik kichik sanoat zonasini borib ko‘rdi.

Davlatimiz rahbarining 2021-yil 21-iyundagi mebel sanoatini rivojlantirishga oid qaroriga muvofiq, salohiyati bor tumanlarda shunday sanoat zonalarini tashkil etilmoqda.

Xonqa tumanida ham avvaldan mebelsoz ustalar ko‘p. Hozirgi kunda bu yo‘nalishda

140 dan ziyod tadbirkor, 500 dan ortiq xonadonda kichik ustaxonalar bor. Shu paytgacha ularning ko‘pchiligi tor joylarda, noqulay sharoitlarda ishlardi.

Shu bois, 10 gektar yer ajratilib, mebel mahsulotlarini klaster usulida ishlab chiqarish, ko‘rgazma va savdo obyektlarini o‘z ichiga olgan kichik sanoat zonasi barpo etildi. Bu yerda 10 million dollarlik 61 ta korxona faoliyat boshlamqda. 650 kishi ish bilan ta’minlandi.

Korxonalarda Germaniya, Italiya, Shveysariya, Turkiya, Xitoy kabi davlatlardan keltirilgan zamonaviy dastgohlar o‘rnatilgan. Yiliga 108 milliard so‘mlik uy, ofis, mehmonxona, restoran, savdo va ijtimoiy muassasalar uchun mebellar ishlab chiqarish quvvati yaratilgan.

Prezidentimiz ustaxonalardagi ish jarayonini ko‘zdan kechirdi. Xorazm viloyatida qurilish ko‘lami oshgani, ko‘plab uy-joylar, mehmonxonalar, bino va inshootlar barpo etilayotganidan unumli foydalanib, korxonalar uchun buyurtmalar shakllantirish, yangi turdagi mahsulotlarni mahalliyalashtirish zarurligini ta’kidladi.

Mebelsozlik kichik sanoat zonasida dizayner va texnologlar tayyorlash bo‘yicha o‘quv markazi tashkil qilingan. Unga Turkiyadan malakali mutaxassslar jalb etilgan.

Ular bilan muloqotda mebellar sifatini ta’minlash, yoshlarning bu bo‘yicha tajribasini oshirish haqida so‘z yuritildi.

Bu yerda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar tashqi bozorlarga ham yo‘naltirilishi ko‘zda tutilgan. 3 million dollardan ziyod eksport qilinishi mo‘ljallangan.

Yana bir muhim jihati, sanoat zonasida energiya samaradorlikka e‘tibor qaratilgan. Korxonalarning barchasiga quyosh panellari o‘rnatilgan.

 Davomi 2-betda

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING XIVA SHAHRIDA “ARDA XIVA” XALQARO TURIZM MARKAZINING TANTANALI OCHILISH MAROSIMIDAGI NUTQI

Assalomu alaykum, qadri vatandoshlar, muhtaram Xorazm ahli!

Hurmatli mehmonlar!

Bugun siz, azizlar bilan shonli tariximiz ustunlari va Yangi O‘zbekiston poydevori chambarchas bog‘langan mo‘tabar diyorda — qadimiy Xorazmda diydor ko‘rishib turganimdan benihoya xursandman.

Xorazm dunyo sivilizatsiyasi va madaniyatiga bebaho hissa qo‘shgan Sharq gavharidir. Bu ko‘hna yurt jahonga dong‘i ketgan ne-ne olim-u fozillar, sarkarda va sultonlar, aziz avliyolar, betakror shoir va hofizlar vatanidir.

Ilm-ma’rifat mash’allari bo‘lgan Muhammad al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Pahlavon Mahmud, Ogahiy, vatanparvarlik timsoli bo‘lgan Najmiddin Kubro va Jaloliddin Manguberdi singari ulug‘ zotlar xalqimizning faxru iftixoridir.

Shu ma’nod, jahon olimlarining “Ulug‘ novator Beruniy fanning bir qator hal qiluvchi yo‘nalishlarida o‘z davridan 500 yillab, hatto undan ham ko‘proq ilgari lab ketgan”, degan e’tiroflari bu zaminning buyuk salohiyatidan dalolat beradi.

Xorazmning havas qilsa arziydigan yana bir bebaho boyligi bor. Bu — uning muhtasham tarixiy obidalaridir. Ochiq osmon ostidagi shahar-muzey — “Ichon qal’a” majmuasi umumbashariyat xazinasi sifatida UNESCO ro‘yxatiga kiritilgani ham fikrimizni tasdiqlaydi.

E’tibor bering, viloyatda 260 dan ziyod madaniy meros obyekti mavjud. Va ularning tarixi bir necha asrlarga borib taqaladi. Hech shubhasiz, ular o‘zining noyob va go‘zal me’moriy qiyofasi bilan nafaqat O‘zbekiston, balki butun Markaziy Osiyoning jahon

ravnaqidagi betakror o‘mini belgilab beradigan tirik tarixdir.

Aziz yurtdoshlar!

Bugungi kunda biz Yangi O‘zbekistonni barpo etish maqsadida o‘zgarish va yangilanishlar yo‘lini qat’iyat bilan davom ettirmoqdamiz.

Boshlagan islohotlarimiz doirasida tinchlik va do‘stlik jabhasi bo‘lmish turizmni rivojlantirishga alohida strategik yo‘nalish sifatida e’tibor qaratib kelayotganimiz albatta bejiz emas. Chunki, turizm — bu faqat sayr-u sayohat, mazmunli dam olishgina emas. U avvalo ellarni ellarga, dillarni dillarga bog‘laydigan, mehnatkash va bag‘rikeng xalqimizning boy madaniyati va tarixiy merosini, uning ochiq qalbini dunyoga namoyon qiladigan ko‘zgudir.

Biz tarixiy yodgorliklar, madaniy meros obyektlarini asrab-avaylab, ularni global turizm tarmog‘iga faol jalb etish borasida keng qamrovli islohotlarni amalga oshirmoqdamiz.

Shu bilan birga, milliy me’morchilik yechimlarini qo‘llagan holda, bir vaqtning o‘zida tarix va zamonaviyligni mujassam etgan yirik turistik majmualarni ko‘paytirishga alohida urg‘u beryapmiz.

Algebra va algoritm asoschisi Muhammad Xorazmiy bobomiz aytganlaridek “Tartib va to‘g‘ri hisob-kitob — har qanday yutuqning garovidir”. Shu sababli ham mamlakatimizda turizm salohiyatini yuksaltirish bo‘yicha aniq va puxta rejalar asosida ish yuritilmoqda.

Biz bundan uch yil oldin Samarqandda “Bojiy shahar” deb nom olgan yirik turistik majmuani ishga tushirgan edik. Bugun esa Xorazm zaminida “Arda Xiva”, oddiy qilib aytganda, “Bojiy Xiva” kompleksi tantanali ravishda ochilmoqda. Bu noyob maj-

mua ulkan rejalарimizning yana bir amaliy natijasidir.

Qisqa fursatda bunyod etilgan ushbu muhtasham xalqaro turistik maskanda 17 ta mehmonxona va mehmon uylari, 9 ta restoran, har biri kuniga 2 ming sayyohga xizmat qiladigan ochiq va yopiq akvaparklar, 3 ming o‘rinli amfiteatr, 5 ta kino va konsert zali, ko‘rgazmalar pavilyoni, 70 ta do‘kon, 300 ta savdo rastasi, 11 ta hunarmandlar uyi, Sharq bozori va zargarlik markazi, favvoralar, sayr uchun 4 kilometrli sohil bo‘yi yo‘lagi ishga tushmoqda.

Bu borada Xorazmning shonli o‘tmishidan hikoya qiladigan “Ko‘hna Urganch” muzeyi aholimiz va sayyohlarning sevimli maskaniga aylanishi shubhasiz.

Ana shunday ishlarimiz hisobidan viloyatga turistlar oqimi qo‘shimcha ravishda 1 million nafarga oshadi, xizmatlar 1,2 trillion so‘mga ko‘payadi, kamida 2 mingta ish o‘rni yaratiladi.

Ishonchim komil, “Arda Xiva” Xorazmdagi turizm rivojida yangi sahifa ochadi, viloyatning ikkinchi “tashrif qog‘oziga” aylanadi.

Fursatdan foydalanib, ushbu majmuaga sarmoya kiritgan tadbirkor va investorlarga, fidokorona mehnat qilgan quruvchi va mutaxassslarga, bu ezgu ishga munosib hissa qo‘shgan barcha insonlarga samimiy minnatdorlik bildiraman.

Ushbu betakror maskan Xorazmga, butun xalqimizga muborak bo‘lsin!

Hurmatli Xorazm ahli, aziz mehmonlar!

Xorazmning hali ishga solinmagan turistik salohiyati juda katta. Xabaringiz bor, Xiva tumanidagi 2 ming 400 gektar yerni Xiva shahriga o‘tkazyapmiz. Bu joyda “Sahro yulduzi” turistik kompleksi bunyod etiladi.

Bu hududda mehmonxonalar, ko‘ngilochar markazlar, gastronomik va savdo ko‘chalari, muzeylar, ekouylar, yozgi lager, ekstremal turizm obyektlari barpo etiladi.

Kompleks qurilishi bo‘yicha ishlarni shu yildan kechiktirmasdan boshlaymiz. Bosh vazir A.Aripov bunga bosh-qosh bo‘ladi.

Shuningdek, Tuproqqal’ada cho‘l hududidagi 5 ming gektar yerda safari va ov turizmi rivojlantiriladi. Urganch shahri, Shovot, Qo‘shko‘pir, Xiva va Hazoraspdan oqib o‘tadigan G‘azovot, Polvon, Shovot kanallari bo‘ylarida 50 million dollarlik 80 ta xizmat ko‘rsatish, savdo ko‘ngilochar obyektlari ishga tushiriladi. Bog‘ot, Gurlan, Yangibozor va Urganch tumanida turizm qishloqlari tashkil etiladi.

Biz ajdodlarimiz qoldirgan beqiyos ilmiy-ma’naviy merosni asrab-avaylash, boyitish va dunyoga keng targ‘ib etishni o‘z oldimizga ulug‘ maqsad qilib qo‘yganniz. Shu bois, Ma’mun akademiyasi binosi oldidagi 2 gektar bog‘ “Buyuk allomalar” nomli ochiq osmon ostidagi “smart” muzeyga aylantiriladi. Shu asosda Xorazm yurtida kamol topgan o‘nlab mumtoz ajdodlarimizning ibratli hayot yo‘li, boy jodiy merosi interaktiv usulda bir nechta xorijiy tillarda sayyohlarga taqdim etiladi.

Kuni kecha Urganch shahrida Muhammad al-Xorazmiy nomidagi yangi universitet va IT maktabini tashkil etish bo‘yicha alohida qarorni imzoladim. Aminmanki, bu ta’lim dargohlari bo‘lg‘usi xorazmiylar, beruniylar bilim oladigan o‘quv maskanlariga aylanadi.

Hurmatli yurtdoshlar!

Bir masalaga e’tiboringizni qaratmoqchiman. Amudaryoning ikki sohilida joylashgan Xorazm va Qoraqalpog‘iston elini Xudoi taoloning o‘zi taqdiridosh qilib yaratgan. Bu ikki qo‘shni hududning tarixi,

madaniyati va urf-odatlarini bir-biridan alohida tasavvur qilib bo‘lmaydi.

Shu bois, Xorazmda turizmni rivojlantirishni Qoraqalpog‘iston bilan hamohang ravishda, yagona konsepsiya asosida amalga oshiramiz.

Buning uchun “Xorazm — Qoraqalpog‘iston” turizm halqasi loyihasi ishlab chiqiladi. Masalan, Xivadan 80 kilometr masofada Ellikqal’a tumani joylashgan bo‘lib, bu yerda turistlar uchun jozibador bo‘lgan “Ayozaqal’a” va “Tuproqqal’a” yodgorliklari bor. Shuningdek, tumanidagi “Axchako‘l”da plaj turizmini rivojlantirish uchun barcha infratuzilma mavjud. Yoki Beruniy tumanidagi “Sulton Uvays” qadamjosi ziyorat turizmi uchun nodir maskanlardan biri hisoblanadi. Bunday misollarni ko‘plab keltirish mumkin.

Shuning uchun, ushbu hududlarni o‘zaro bog‘laydigan yo‘l, yo‘lbo‘yi infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha katta dastur boshlaymiz. Bundan tashqari, “Urganch — Gurlan — Mang‘it” avtomobil yo‘li to‘liq rekonstruksiya qilinadi.

So‘nggi yillarda Xiva shahriga temir yo‘l tortilib, yangi vokzal qurildi, “Buxoro — Urganch — Xiva” temir yo‘li to‘liq elektrlashtirildi. Sizlar bilan kelishib olganimizdek, 2026-yilda ushbu yo‘nalish bo‘ylab Jaloliddin Manguberdi nomi bilan ataladigan zamonaviy tezyurar poyezdlar qatnovi yo‘lga qo‘yiladi. Eng muhimi, yaqin kelgusida bu tezyurar poyezdlar Nukusgacha boradi.

Bugungi anjumanda ko‘plab xorijlik do‘stlarimiz ishtirok etmoqda. Keling, qadri mehmonlarimizni chin dildan qutlab, ularga yana bir bor hurmat va ezgu tilaklarimizni bildiraylik!

Albatta, Xorazmga bir marta kelgan odam unga umrbod mafun bo‘lib qoladi. Ishonchim komil, siz, azizlar ham bu go‘zal va betakror yurtdan olam-olam unutilmas taassurotlar bilan qaytasizlar.

Shu bilan birga, mamlakatimizning har bir hududi o‘ziga xos suluv tabiati, boy madaniyati, urf-odati, tarixiy obidalari va bir-biridan lazzatli taomlari, noz-u ne’matlari bilan ajralib turadi.

Mamlakatimizga yana bir bor tashrif buyuring, boshqa hududlarimizni ham ko‘ring, yurtimiz haqidagi xolis fikrlaringizni yaqinlaringiz bilan o‘rtoqlashing.

Yangi O‘zbekiston sayyohlar uchun xavfsiz, xilma-xil kontentlarga boy, yorqin taassurotlarga to‘la turistik makon sifatida xotirangizda hamisha muhrlanib qoladi.

O‘zbekistonga xush kelibsiz, aziz do‘stlar!

Qadri yurtdoshlar!

Bugun dunyodagi murakkab vaziyatga qaramasdan, O‘zbekiston o‘z yo‘lidan dadil bormoqda. Xalqimiz tinchlik va farovonlik, do‘stlik va hamkorlik, bunyodkorlik ruhi bilan yashamoqda.

Bizning har bir maqsad-rejamiz, har bir islohotimiz odamlarimiz hayotini yaxshilashga, ularni rozi qilishga qaratilgan va bu ishlarimiz, inshootlooh, bardavom bo‘lgay.

Aminmanki, siz, azizlar bilan fidokorona mehnat qilib, Xorazm va Qoraqalpog‘istonni dunyodagi eng go‘zal va obod, ilm-fan va innovatsiyalar, madaniyat va san’at yanada rivojlangan zamimga aylantiramiz.

Ana shu oljanob maqsad yo‘lida barchangizga muhtasham sog‘liq, xonadonlaringizga tinchlik va fayz-u baraka tilayman.

Jonajon Vatanimiz hamisha omon bo‘lsin! O‘zbekistonimiz gullab-yashnasin! Katta rahmat sizlarga!



SHARQ GAVHARI XORAZM VOHASIDAGI YANGILANISHLAR O‘ZBEKISTON O‘Z YO‘LIDAN DADIL BORAYOTGANI, XALQIMIZ BUNYODKORLIK RUHI BILAN YASHAYOTGANING AMALDAGI IFODASIDIR

Boshlanishi 1-betda

Davlatimiz rahbari shourumda mahsulot namunalarini ko‘zdan kechirdi, ularning sifatini va dizaynini yuqori baholadi.

Xorazm viloyatida mebel ishlab chiqarish bilan 300 dan ortiq korxona shug‘ullanadi. Sohadagi yakka tartibdagi tadbirkorlar 200 dan ortiq, 1 ming 300 dan ziyod aholi o‘zini o‘zi band qilgan.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Xonqa tumanidagi “Sobirjon Yusuf” oilaviy fermer xo‘jaligi dalasida bo‘ldi.

Uning rahbari Oyimjon Otajanova 73 yoshda. Qo‘li-gul bu ayol ko‘chatchilik bilan shug‘ullanayotganiga qirq yildan oshgan. Xo‘jalikning 3 gektar maydonida mevali va manzarali daraxt ko‘chatlari yetishtiriladi. Yana ikki gektarda esa bog‘ dorchilik qilinadi. Bundan tashqari, 12 sotix issiqxonada 40 turdagi gul ko‘chatlari yetishtiriladi. Issiqxona zamonaviy suv tejamkor texnologiyalar bilan ta‘minlangan bo‘lib, uning har bir bo‘limida ko‘chatlarning turi va xususiyatidan kelib chiqib zarur mikroiklim yaratilgan.

Serg‘ayrat onaxon oila a‘zolarini ham shu ishga boshlagan. Yiliga 50 ming tupdan ortiq ko‘chat o‘stirib, sotiladi. Ularning yillik daromadi bir milliard so‘mdan ortadi.

E‘tiborli jihat, bu yerda yetishtirilayotgan ko‘chatlar qo‘shni hududlar, Qozog‘iston va Turkmanistonga ham yetkazib berilmoqda.

Bog‘ joylashgan Guliston mahallasida 7 mingdan ziyod aholi yashaydi. Yoshlar va xotin-qizlarga iborat bo‘lib, ularni ish bilan ta‘minlashda onaxonning xizmatlari katta. U xozirgacha 200 dan ortiq shogird yetishtirgan, 300 nafar ishsiz fuqaroni ko‘chatchilikka o‘rgatgan. Mahalladagi 70 foiz xonadon bilan kasanachilik yo‘lga qo‘yilgan.

Fidoyi dehqon bu yil tumandagi barcha maktab va bog‘chalarga 2 ming dona qarag‘ay ko‘chatini beg‘araz tarqatib, “Yashil makon” loyihasiga, yurtimiz obodligiga hissa qo‘shdi.

Bandlik vazirligi va bank bilan hamkorlikda xo‘jalikning yondosh hududida o‘quv markazi ochilgan. Unda xo‘jalik tajribasi asosida xonadonlardagi samarasiz tomorqadan yil davomida daromad olishga o‘rgatilmoqda. Natijada mahallalarga omilikorlik kengayib, oilalarga qo‘shimcha daromad kirmoqda.

Ushbu xizmatlari, mehnatsevarligi va yosh avlodga namunaligini inobatga olib, Prezidentimiz Oyimjon Otajonovani “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan qishloq xo‘jaligi xodimi” unvoni bilan mukofotlashga qaror qildi.

Aholi faolligi oshib, turizm jadal rivojlanayotgan Xorazmda transport

xizmatlari ham yaxshilanmoqda. Shu maqsadda “Bunyod yo‘lovchi tashish” korxonasi tomonidan qariyb 8 million dollar evaziga 80 ta zamonaviy avtobus olib kelinmoqda. Hozirga qadar shundan 50 tasi keltirilgan.

Davlatimiz rahbari viloyatga tashrifi chog‘ida aholiga yaratilayotgan qulayliklar bilan tanishdi.

“YEVRO-5” talablariga munosib mazkur avtobuslarning sig‘imi 70 kishilik. Tag‘i past bo‘lgani uchun nogironlar va keksalar uchun ham qulay. Shuningdek, Wi-Fi va kuzatuv kameralari ham mavjud. Bunday zamonaviy jamoat transportidan keksayu yosh birdek mamnun.

Avvalgi kichik avtobuslarning har biri kuniga 200-300 kishini tashigan bo‘lsa, yangi avtobuslarning har biri ming kishiga xizmat ko‘rsatmoqda. Ularning qatnov oraliq‘i vaqti ham ikki barobarga qisqarib, 5-12 daqiqaga tushdi. Natijada Urganch shahrida aholining jamoat transportidan foydalanish darajasi 38 foizga yetdi.

Asosiysi, bunday sharoitlar transport yetishmovchiligi va ko‘chalarda tirbandlikning oldini olib, fuqarolarning erkin harakatlanishiga xizmat qilmoqda.

Boshqa hududlarni ham jamoat transporti bilan yaxshi qamrab olish uchun korxona tomonidan tez kunda yana 30 ta avtobus olib kelinishi ko‘zda tutilgan.

Prezidentimiz jamoat transportini tumanlar bilan samarali bog‘lab, yo‘nalishlarni qulaylashtirish bo‘yicha ko‘rsatmalar berdi. Yo‘llarni ta‘mirlab, haydovchilar malakasi va texnik xizmat sifatini oshirish avtobuslardan foydalanish muddatini uzaytirishda muhim omil ekanini qayd etildi.

Davlatimiz rahbari yurtimizda ishlab chiqarilayotgan vagonlar va Urganch — Xiva elektrlashtirilgan temir yo‘lini ko‘zdan kechirdi.

Bugungi kunda 465 kilometrlik “Buxoro — Urganch — Xiva” temir yo‘li elektrlashtirilib, himoya to‘siqlari o‘rnatildi va zarur inshootlar qurilgan. Bu yo‘nalish uchun Janubiy Koreyaning “Hyundai Rotem” kompaniyasidan yuqori tezlikdagi 6 ta elektropoyezd xarid qilinib, kelgusi yildan “Jaloliddin Manguberdi” nomi ostida Toshkent — Xiva yo‘nalishiga qo‘yiladi.

Natijada yiliga 3 milliondan ortiq yo‘lovchiga xizmat ko‘rsatiladi. Hozirda Toshkentdan Xivaga 14 soatda yetib boradigan poyezd mazkur yo‘nalishda harakatga qo‘yiladigan elektropoyezd imkoniyatlari tufayli 7 soat 40 daqiqada yetib boradi.

Shuningdek, yuk poyezdlari o‘tkazuvchanligi qariyb 6 million tonnaga yetadi. Hozir bu ko‘rsatkich 1 million tonna.

Prezidentimizning 2023-yil 10-oktabrdagi temir yo‘l transporti sohasini tubdan isloh qilish to‘g‘risidagi qarori asosida vagonsozlik tarmog‘i ham mustahkamlanmoqda. Jumladan, Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasidan 50 million dollar yo‘lovchi vagonlari ishlab chiqarish uchun yo‘natilgan. Joriy yil birinchi chorakda dastlabki 10 ta yo‘lovchi vagoni qurib bitkazildi.

Davlatimiz rahbari ularidagi qulayliklarni ko‘zdan kechirdi.

Kelgusi ikki yilda yo‘lovchi vagonlari soni 70 taga ko‘paytirilib, eski turdagilaridan bosqichma-bosqich yoz kechiladi. Natijada yiliga bir million nafardan ortiq qo‘shimcha yo‘lovchini tashish imkoniyati yaratiladi.

Prezident ushbu yangi poyezdda jamoatchilik bilan birga Urganchdan Xivaga yo‘l oldi. Yo‘l bo‘ylab joylardagi obodonchilik, dala chetlarida ekilgan ko‘chatlarni kuzatib bordi.

Viloyatda o‘tgan yili “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida qariyb 10 million tup daraxt va buta ko‘chatlari ekilgan. Yirik sanoat korxonalari tomonidan “yashil belbog‘”lar barpo etilgan.

Buyilertabahorda ham ziroatchilik ko‘lami kengaydi. Viloyatdagi 1 ming 100 gektardan ziyod dala chetlari va kanallar atrofidagi maydonlarga daromadli mahsulotlar ekildi. Ularni kafolatli xarid qilishga tadbirkorlar biriktirilgan. “Agroko‘makchi” mobil ilovasi orqali dala chetlari haqidagi ma‘lumotlar jamoatchilikka yetkazilmoqda.

Xorazm viloyatining turizm salohiyatini yuzaga chiqarish bo‘yicha qilinayotgan ishlar katta natija bermoqda. Buni hududga xorijiy sayyohlarning tashrifi yetti-sakkiz yil oldingi davrga nisbatan 30 barobar ko‘payganida ham ko‘rish mumkin. Sohadagi o‘zgarishlar hisobiga viloyat turizm xizmatlari eksporti 2017-yildagi 7 million dollardan o‘tgan yili 380 million dollarga yetdi.

Endi bu yerda yana bir noyob majmua — “Arda Xiva” bor. Uning ochilishi Xorazm viloyatiga Prezident tashrifining muhim voqeasi bo‘ldi.

Majmua qadim kent ichra yana bir betakror shaharni eslatadi. Mazkur maskan o‘zida

tarix va bugunni uyg‘unlashtirgan me‘moriy yechimi bilan noyob loyiha sanaladi.

“Arda Xiva” hududdagi 25 gektarlik past unumli, sho‘rxok maydonda qurildi. Uning bir tomoni 150 gektarlik G‘ovuk ko‘lga tutashib ketgani, bu maydonlarda esa yashil hududlar tashkil etilayotgani loyihani sayyohlar uchun yanada jozibador ko‘rsatishga xizmat qiladi.

Davlatimiz rahbari majmua bo‘ylab yurib, bunyodkorlik ishlarini ko‘zdan kechirdi. Hunarmandchilik, badiiy va amaliy san‘at ko‘rgazmalari hamda bozor rastalarini tomosha qildi.

Bu yerda sayyohlarga xizmat ko‘rsatish uchun barcha qulayliklar yaratilgan. Xususan, qadimiy shahar muhitini aks ettiruvchi binolar, jami ming o‘rinli 20 ta mehmonxona qurildi. Ochiq-yopiq akvapark va attraksionlar, uch ming o‘rinli amfiteatr va musiqali favvora barpo etildi.

Shuningdek, tarixiy qiyofadagi 11 ta hunarmand uyi, sharqona bozor, “Ko‘hna Urganch” muzeyi mehmonlar uchun qiziqarli bo‘ladi. Ikki kilometrlik kanalda qayiqda sayr qilish imkoniyati yana bir o‘ziga xos yangilik.

Beshta kinoteatr va konsert zali, ko‘p-lab restoranlar, zargarlik markazi, savdo do‘konlari va rastalari, suv moto-turizmi joyi hamda avtoturargoh zamonaviy talab-larga mos tarzda qurilgan. Hududdagi barcha inshootlar uchun yagona sovitsiz va istish tizimi barpo etilgan. Elektr energiyasi ta‘minoti uchun qyosh panellari o‘rnatilgan.

Majmua yiliga uch million nafar tashrif buyuruvchini qabul qilish imkoniyatiga ega. Bu yerda ikki mingdan ziyod kishi ish bilan ta‘minlanadi.

“Ichan qal‘a” tarixiy bo‘lsa, “Arda Xiva” Xorazmning zamonaviy “tashrif qog‘ozi” bo‘ladi.

Davlatimiz rahbari shu yerda xorazmlik yoshlar bilan samimiy muloqot qildi.

— Har qanday xazira, yerosti boyliklari qachonlardir tugaydi. Lekin bobolarimiz bizga shunday buyuk ma‘naviy meros, ulug‘vor obidalar qoldirganki, ular asrlar davomida xalqqa xizmat qilib kelyapti. Biz mana shu boylikdan elimiz manfaati yo‘lida foydalanishimiz kerak. Ancha ishlar qilindi, lekin hali rejarlar ham ko‘p. Men bu yo‘lda siz, yoshlarga ishonaman. Sizlar baland cho‘qqilarni ko‘zlab, shunga yarasha bilim olsangiz, zamonaviy kasblarning ustasi bo‘lsangiz, yuksak maqsadlarimizga, albatta, erishamiz, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Yoshlarning o‘qishdagi muvaffaqiyatlari, orzu-intilishlari haqida fikr almashildi.

Xiva shahrida “Arda Xiva” xalqaro turizm markazining tantanali ochilish marosimi

bo‘ldi. Prezident Shavkat Mirziyoyev marosimdagi nutqida viloyatning buyuk o‘tmishi va bugungi turizm salohiyati haqida so‘zldi.

— Xorazm dunyo sivilizatsiyasi va madaniyatiga bebaho hissa qo‘shgan Sharq gavharidir. Bu ko‘hna yurt jahonga dong‘i ketgan ne-ne olim-u fozillar, sarkarda va sultonlar, aziz avliyolar, betakror shoir va hofizlar vatanidir, — deya ta‘kidladi davlat rahbari.

Bu yerdagi muhtasham tarixiy obidalar bebaho boylik ekanini qayd etildi. Ochiq osmon ostidagi shahar-muzey — “Ichan qal‘a” majmuasi umumbashariyat xazinasi sifatida UNESCO ro‘yxatiga kiritilgan. Viloyatda 260 dan ziyod madaniy meros obyekti mavjud. Ular o‘zining noyob va go‘zal me‘moriy qiyofasi bilan nafaqat O‘zbekiston, balki butun Markaziy Osiyoning jahon ravnaqidagi betakror o‘mini belgilab beradigan tirik tarixdir.

Bugungi kunda bunga asoslanib, turizmini rivojlantirishga alohida strategik yo‘nalish sifatida e‘tibor qaratilmoqda. Tarixiy yodgorliklar, madaniy meros obyektlari asrab-avaylanib, global turizm tarmog‘iga faol jalb qilinmoqda.

Shu bilan birga, o‘zida tarix va zamonaviylikni mujassam etgan yirik turistik majmualar ham barpo qilinayotir. “Arda Xiva” shunday ulkan rejalarning yana bir amaliy natijasidir. Ushbu muhtasham xalqaro turistik maskanda 17 ta mehmonxona va mehmon uylari, 9 ta restoran, ochiq va yopiq akvaparklar, 3 ming o‘rinli amfiteatr, 5 ta kino va konsert zali, ko‘rgazmalar pavilyoni, 70 ta do‘kon, 300 ta savdo rastasi, 11 ta hunarmandlar uyi, Sharq bozori va zargarlik markazi, favvoralar, sohil bo‘yi yo‘lagi bor.

Bunday ishlar hisobidan viloyatga turistlar oqimi qo‘shimcha ravishda 1 million nafarga oshadi, xizmatlar 1,2 trillion so‘mga ko‘payadi, kamida 2 mingta ish o‘rni yaratiladi.

— Ishonchim komil, “Arda Xiva” Xorazmdagi turizm rivojida yangi sahifa ochadi, viloyatning ikkinchi “tashrif qog‘ozi”ga aylanadi. Ushbu betakror maskan Xorazmga, butun xalqimizga muborak bo‘lsin, — dedi Prezidentimiz.

Yana bir yangilik — endi Xiva tumanidan 2 ming 400 gektar yer Xiva shahriga o‘tkazilib, u joyda “Sahro yulduzi” turistik majmuasi bunyod etiladi. Unda mehmonxonalar, ko‘ngilochar markazlar, gastronomik va savdo ko‘chalari, muzeylar, ekouylar, yozgi lager, ekstremal turizm joylari bo‘ladi.

Shuningdek, Tuproqqa‘lada cho‘l hududidagi 5 ming gektar yerda safari va

ov turizmi rivojlantiriladi. Urganch shahri, Shovot, Qo‘shko‘pir, Xiva va Hazoraspdan oqib o‘tadigan G‘azovot, Polvon, Shovot kanallari bo‘ylarida 50 million dollarlik 80 ta xizmat ko‘rsatish, savdo-ko‘ngilochar obyektlari ishga tushiriladi. Bog‘ot, Gurlan, Yangibozor va Urganch tumanida turizm qishloqlari tashkil etiladi.

Ma‘mun akademiyasi binosi oldidagi 2 gektar bog‘ “Buyuk allomalar” nomli ochiq osmon ostidagi “smart” muzeyga aylantiriladi. Shu asosda Xorazm yurtida kamol topgan o‘nlab mumtoz ajdodlarimizning ibratli hayot yo‘li, boy ijodiy merosi interaktiv usulda bir nechta xorijiy tillarda sayyohlarga taqdim etiladi.

Davlatimiz rahbari Amudaryoning ikki sohilida joylashgan Xorazm va Qoraqalpog‘iston elini Xudoi taoloning o‘zi taqdirash qilib yaratganini ta‘kidladi. Shu bois, Xorazmda turizmini rivojlantirish Qoraqalpog‘iston bilan hamohang ravishda, yagona konsepsiya asosida amalga oshiriladi. Buning uchun “Xorazm — Qoraqalpog‘iston” turizm halqasi loyihasi ishlab chiqildi. “Urganch — Gurlan — Mang‘it” avtomobil yo‘li to‘liq rekonstruksiya qilinadi.

So‘nggi yillarda Xiva shahriga temir yo‘l tortilib, yangi vokzal qurildi, “Buxoro — Urganch — Xiva” temir yo‘li to‘liq elektrlashtirildi. 2026-yilda ushbu yo‘nalish bo‘ylab Jaloliddin Manguberdi nomi bilan ataladigan zamonaviy tezyurar poyezdlar qatnovi yo‘lga qo‘yiladi. Yaqin kelajakda bu tezyurar poyezdlar Nukusgacha boradi.

Prezidentimiz marosimda qatnashayotgan xorijlik mehmonlarni ham qutlab, hamkor ellarga hurmat va ezuq tilaklarini bildirdi.

— Bugun dunyodagi murakkab vaziyatga qaramasdan, O‘zbekiston o‘z yo‘lidan dadil bormoqda. Xalqimiz tinchlik va farovonlik, do‘stlik va hamkorlik, bunyodkorlik ruhi bilan yashamoqda. Bizning har bir maqsad-rejamiz, har bir islohotimiz odamlarimiz hayotini yaxshilashga, ularni rozi qilishga qaratilgan va bu ishlarimiz, inshootlar, bardavom bo‘lgay. Aminmanki, siz, azizlar bilan fidokorona mehnat qilib, Xorazm va Qoraqalpog‘istonni dunyodagi eng go‘zal va obod, ilm-fan va innovatsiyalar, madaniyat va san‘at yanada rivojlangan zaminga aylantiramiz, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Marosim katta konsert namoyishi bilan yakunlandi.

Ziyodulla JONIBEKOV,
Ikrom AVVALBOYEV,
Ahmadjon SHOKIROV,
O‘ZA maxsus muxbirlari

Ijtimoiy himoya



markazlashgan tizim sifatida shakllantirildi. Hozir tuman va shaharlarda “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari va har bir mahallada ijtimoiy xodimlar faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Mahalla darajasida 12 toifadagi ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarga 100 dan ortiq ijtimoiy xizmat va yordamlar ko‘rsatish tizimi yaratildi.

Bu boradagi ishlar izchilligini ta‘minlashda ikkinchi marta o‘tkazilayotgan mazkur ko‘rgazmaning ham alohida o‘mi bor. Ijtimoiy himoya milliy agentligi ma‘lumotiga ko‘ra, mazkur ko‘rgazma o‘tgan yili yuqori natijalar bilan yakunlangan. Unda 250 dan ortiq tadbirkorlik subyekti ishtirok etgan, ulardan 212 tasi nogironligi bo‘lgan shaxslarni ish bilan ta‘minlangan korxonalar edi. Unga kelganlar 300 million so‘mlik mahsulot xarid qilgan. Davlat tashkilotlari, yirik korxonalar va tadbirkorlar o‘rtasida umumiy qiymati 440 milliard so‘mni tashkil etuvchi 900 ga yaqin xo‘jalik shartnomasi imzolangan. Bu esa nogironligi bo‘lgan shaxslar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ular ishlab chiqarayotgan mahsulotlarni bozorga chiqarish va iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirishda samara bermoqda.

Ushbu an‘ana davom ettirilib, bu yil ham tadbir yuqori saviyada o‘tkazilmoqda. Unda 150 ga yaqin tadbirkor va ish beruvchilar, hunarmandlar ishtirok

“INSON UCHUN” KO‘RGAZMASI IMKONIYATI CHEKLANGANLARGA MAYDON

Toshkentdagi “O‘zekspomarkaz” majmuasida “Inson uchun” deb nomlangan respublika ko‘rgazmasi bo‘lib o‘tmoqda. Ijtimoiy himoya milliy agentligi tomonidan Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Savdo-sanoat palatasi hamda boshqa mutasaddi vazirligi va idoralar, nodavlat notijorat tashkilotlar bilan hamkorlikda tashkil etilgan ushbu ko‘rgazmada nogironligi bo‘lgan shaxslar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot va xizmatlar taqdim etilyapti.



etyapti. Ular tomonidan mebel, to‘qimachilik, poyabzal, sport jihozlari, oziq-ovqat, maishiy texnika, poligrafiya va boshqa turdagi mahsulotlar namoyish etilayotir. Shu bilan birga, mahsulot yetkazib berish bo‘yicha shartnomalar imzolannmoqda.

An‘anaviy tadbirlardan farqli o‘laroq, joriy yilgi ko‘rgazma mazmun jihatidan yanada boy va diqqatga sazovor tarzda tashkil etilayotir. Uning doirasida nogironligi bo‘lgan shaxslarga teng mehnat imkoniyatini yaratish, ular uchun moslashtirilgan ish muhitini ta‘minlash, jamoaga teng huquqli a‘zo sifatida qabul qilish borasida tashabbus ko‘rsatgan tashkilot va kompaniyalar taqdirlanadi.

Shuningdek, “Inson uchun” hujjatli filmi premyerasi bo‘lib o‘tadi. Ijtimoiy muammolarni hal etishga qaratilgan maxsus loyihalar taqdimoti o‘tkaziladi. Bu orqali texnologiyalar va biznesning ijtimoiy mas‘uliyatli yondashuvi jamiyatdagi tenglikni ta‘minlashga qanday xizmat qilayotgani keng jamoatchilikka yetkaziladi.

“Imkoniyatlar” olimpiadasining final bosqichi va g‘olblarni taqdirlash marosimi ham o‘tkaziladi. Yetakchi kompaniyalar bilan hamkorlikdagi inklyuziv tashabbuslar taqdimoti tashkil etiladi. Bu loyihalar tadbirkorlik va ijtimoiy mas‘uliyatni uyg‘unlashtirish, korporativ inklyuziv madaniyatni rivojlantirishga xizmat qiladi.

— Yuqori saviyada tashkil etilgan bunday ko‘rgazmada ishtirok etish imkoniga ega bo‘lganimizdan mamnumimiz, — deydi Chirchiq


shahridagi “Saxovat ziyo” mas‘uliyati cheklangan jamiyati direktori Eldor Rabbimov. — Nogironligi bo‘lgan shaxslarni ish bilan ta‘minlash nafaqat iqtisodiy, balki muhim ijtimoiy masala hamdir. Shu bois, bunday xayrli ishga hissa qo‘shayotgan tadbirkorlar davlatimiz tomonidan qo‘llab-quvvatlanmoqda. Endi nogironligi bor insonlarni ishga olgan korxonalarga imtiyozlar ko‘lami yanada kengayadi. Bu biz, tadbirkorlar uchun ham imkoniyat, ham mas‘uliyatdir. Bundan unumli foydalanib, xayrli ishlarga doimo hissa qo‘shish insoniy burchimizdir.

Bugun “Saxovot ziyo” MCHJda ishlayotgan xodimlarning teng yarmi nogironligi bo‘lgan insonlardir. Korxona ma‘muriyati ular ishlashi va o‘z vaqtida dam olishi uchun qulay sharoit yaratgan. Tadbirkor Eldor Rabbimov kelgusida faoliyatini kengaytirib, nogironligi bor shaxslar uchun ish o‘rinlarini ko‘paytirib borish niyatida. Shu ma‘noda, ushbu ko‘rgazma tadbirkorning ezuq rejalarni ro‘yobga chiqarishda yana bir imkoniyat bo‘ldi. U ko‘rgazmaning birinchi kunidayoq qiymati qariyb 500 million so‘mga yaqin 4 ta shartnomaga tuzishga muvaffaq bo‘ldi.

Ushbu tadbir nogironligi bo‘lgan shaxslarni ish bilan ta‘minlovchi korxona va tashkilotlar faoliyatini targ‘ib qilish, mahsulot va xizmatlarning bozorda keng o‘rin egallashiga ko‘maklashish, yangi hamkorlik aloqalarini o‘rnatishda ishlab chiqaruvchilar uchun o‘ziga xos platforma bo‘ladi.

Bahor HAZRATQULOVA,
journalist

Bugunning gapi



MAHALLA RAISLARI SAYLOVI UYUSHQOQLIK BILAN O‘TMOQDA

Mamlakatimizda muhim siyosiy tadbir — mahalla raislari saylovi boshlandi. Bu yilgi saylovlar yangicha demokratik tamoyillari asosida, ochliklik va oshkoralik, fuqarolarning xohish va irodasini erkin ifoda etish prinsiplariga xos tarzda o‘tkazilishida barcha kuch va imkoniyatlar safarbar etildi. Yil boshidanoq ushbu siyosiy tadbirga qizg‘in tayyorgarlik ko‘rildi.

Ayni paytda O‘zbekiston mahallalari uyushmasida respublika shtabi, 14 ta hudud hamda 208 ta

tuman va shaharda mahalla raislari saylovini tashkil etish va o‘tkazishga ko‘maklashuvchi komissiyalar huzurida shtablar faoliyati yo‘lga qo‘yilgan. Ko‘maklashuvchi komissiyalarning mahalla raislari sayloviga doir 32 turdagi hujjat loyihalari tayyorlanib, hududlarga yetkazildi.

Mahalla raisi saylovini tashkil etish va o‘tkazish jarayonlarini ommaviy axborot vositalarida yoritish bo‘yicha media-reja ishlab chiqildi. Saylov o‘tkaziladigan kun, vaqt va joy haqidagi ma‘lumotlar O‘zbekiston mahallalari uyushmasining mahallas.uz rasmiy veb-saytida joylashtirib borilmoqda.

Mamlakatimizning barcha hududida bo‘lgani kabi Namangan viloyatining Uychi tumanida ham saylovga uyushqoqlik bilan hozirlik ko‘rildi. O‘zbekiston mahallalari uyushmasi tuman bo‘limi ma‘lumotiga ko‘ra, tumanida mahalla saylovida ishtirok etadigan vakillar soni 18 ming 637 nafarni tashkil etadi. Aholining mahallalardagi siyosiy jarayonlardan xabardorligini oshirish va faol ishtirokini ta‘minlash, siyosiy jarayonni munosib tarzda o‘tkazish maqsadida tegishli

chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqilib, shu asosda jarayon tashkil etilyapti.

Rejaga muvofiq, mahalla fuqarolar yig‘ini raisi saylovi o‘tadigan bino-inshootlar belgilab olindi. Fuqarolar yig‘inlari raislari sayloviga tayyorgarlik ko‘rish hamda o‘tkazishga ko‘maklashuvchi komissiya a‘zolari mahallalardagi ischi guruhlarida biriktirildi.

— Mahalla raisligiga nomzodlarni ko‘rsatishda aholining tegishli barcha qatlami faol ishtirok etib, o‘z mahallasi, hududidagi o‘zgarishlarga daxldorlik hissi bilan yashayotganini namoyon etdi, — deydi O‘zbekiston mahallalari uyushmasi Uychi tumani bo‘limi bosh mutaxassisi Nuriddin Azimov. — O‘z navbatida, ischi guruh a‘zolari va komissiya vakillari ham aholi tashabbusini qo‘llab-quvvatlab, siyosiy tadbirni tegishli qonunchilikka qat‘iy amal qilgan holda o‘tkazishga alohida e‘tibor qaratyapti. Bu yilgi saylovda tumandagi 168 nomzod o‘z mahallasi ahlining ishonchini qozonish va mas‘uliyatli vazifa bo‘lgan mahalla raisligiga saylanish uchun kurashadi.

Saylov 1-may kuni tumandagi “Istiqlol” mahalla fuqarolar yig‘inidan boshlandi. Belgilangan rejaga muvofiq, 1-24-may kunlari Uychi tumanidagi barcha mahallada ushbu tadbirni hamjihatlik va o‘zaro hamkorlik ruhida o‘tkazish belgilangan.

B. XIDIROVA

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasida mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarini xalqning chinakam “ovozi”ga aylantirish, hududiy boshqaruvni aholi manfaatlariga xizmat qilish tamoyili asosida tashkil etish vazifasi belgilangan. So‘nggi yillarda bu borada keng qamrovli chora-tadbirlar ko‘rilmog‘da. Jumladan, sohaning qonunchilik bazasi mustahkamlandi, mahalliy kengashlarning demokratik qiyofasi tubdan yangilandi, vakolati kengaytirildi.

MAHALLIY KENGASHLAR XALQIMIZNING CHINAKAM “OVOZI”GA AYLANA OLADIMI?

O‘tgan yili mamlakatimizda Oliy Majlis va mahalliy kengashlarga bo‘lib o‘tgan saylovlar jamiyatimizdagi demokratiya, ochiqlik va shaffoflik tamoyillari rivojiga xizmat qilayotgan islohotlarni yanada chuqurlashtirish, jumladan, mahalliy kengashlar faoliyatini tubdan takomillashtirishda yangi davrni boshlab berdi. Mamlakatimizda mahalliy boshqaruvda sifat jihatidan yangi model joriy etilayotgan hozirgi vaqtda bu o‘zgarishlar, shubhasiz, xalqimizning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini ta‘minlash orqali inson qadriini yuksaltirishda muhim omil bo‘layotir.

O‘tgan yili 19-noyabrda Oliy Majlis Senatining birinchi yig‘ilishida Prezidentimiz dunyodagi murakkab vaziyatga yig‘ilganlar e‘tiborini qaratib, **“Mana shunday g‘oyat tahlilali vaziyatda biz faqat kuchli iroda, birlik va hamjihatlik, qattiq**

mehnat bilangina yurtimizda tinchlik va taraqqiyotni ta‘minlashga erisha olamiz. Hurmatli senatorlarimiz, mahalliy kengashlarga saylangan deputatlarimiz ana shu o‘tkir haqiqatni, o‘z zimmalaridagi ulkan mas‘uliyatni chuqur anglab ish olib boradilar, deb ishonaman”, degan edi. Yangi O‘zbekistonni barpo etishga qaratilgan ulug‘vor vazifalarni amalga oshirishda xalq vakillarining rolini yanada oshirish borasida muhim vazifalar belgilab berilgandi.

Ayni paytda joylarda faoliyat yuritayotgan mahalliy kengashlar bu borada qanday ishlarni bajarmoqda? Qonunlarda hududiy va davlat manfaatlari uyg‘un bo‘lishiga erishish, hududlarni rivojlantirishga oid dasturlar ijrosini ta‘minlashda qanday natijalarga erishilmoqda? Mahalliy kengashlar raislaridan ba‘zilarining shu xususdagi fikrlari bilan qiziqdik.



Viloyatda xotin-qizlarni kasb-hunarga o‘qitish, bandligini ta‘minlash va tadbirkorlikka jalb qilish bo‘yicha ishlar mutlaqo yangicha yondashuv va tizim asosida yo‘lga qo‘yilmog‘da. Oilaviy tadbirkorlik uchun kreditlarning katta qismi ular taklif etgan loyihalarga yo‘naltirilyapti. Viloyat kengashidagi deputatlik guruhlarini ishsiz xotin-qizlarning bandligini ta‘minlash maqsadida xonadonbay o‘rganish o‘tkazib, opa-singillarimizning tadbirkorlikka qiziqishi, daromad topishga qaratilgan muayyan faoliyat bilan shug‘ullanish istagini o‘rganmog‘da. Shu asosda ularni ishga joylashtirish, jamoat ishlari jalb qilish orqali bandligi ta‘minlayapti. Xususan, joriy yil birinchi choragida 12 ming 448 xotin-qiz ish bilan ta‘minlandi. Ishsiz 3638 opa-singilmiz kasb-



hunarga o‘qitildi, 3959 nafari tadbirkorlikka yo‘naltirildi.

Tijorat banklari, kambag‘allikni qisqartirish va bandlik boshqarmalari bilan birgalikda tadbirkorlik qilish, daromad topishga qaratilgan muayyan ish bilan shug‘ullanish va faoliyatini kengaytirish istagidagi xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amaliy ishlar boshlab yuborildi. Har bir mahalla va qishloqda oilaviy tadbirkorligini yo‘lga qo‘ymoqchi bo‘lgan, kasanachilik va tomorqa xo‘jaligi bilan shug‘ullanish istagidagi xotin-qizlarga moliyaviy ko‘mak va subsidiya ajratishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Viloyatimizda yoshlarning huquq va manfaatlarini ta‘minlash, qobiliyat hamda imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish, jamiyatning teng huquqli, barpo va bunyodkor a‘zosi-ga aylantirish borasida ham keng ko‘lamli ishlar bajarilmoqda. Ularni tadbirkorlikka jalb qilish, kasb-hunarga o‘rgatish orqali bandligi ta‘minlayapti. Joriy yilda ishsiz, mehnat bozoriga kirib kelgan 70 ming 544 yoshning bandligini ta‘minlash orqali farovonligini oshirish diqqat-e‘tiborimizda. Shu yo‘nalishdagi chora-tadbirlar natijasida o‘tgan uch oyda 30 ming 493 yigit-qiz ish bilan ta‘minlandi.

Jumladan, 1527 nafari kasb-hunarga, 494 nafari esa tadbirkorlikka o‘qitildi. Bir guruh yoshga bandlikka ko‘maklashish, kambag‘allikni qisqartirish va “Yoshlar daftari” jamg‘armalari hisobidan subsidiya ajratilib, tadbirkorligini yo‘lga qo‘yishga ko‘maklashildi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizga muvofiq, mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari va ijro etuvchi hokimiyat organlari vakolatlari, mahalliy kengash raisi va hokim lavozimlari bir-biridan ajratilgani hokimiyatlar bo‘linishiga oid konstitutsiyaviy tamoyilning mahalliy darajada ijrosini ta‘minlashda muhim qadam bo‘ldi.



AHOLI VA MAHALLIY HOKIMIYAT ORGANLARI FAOL MULOQOTNING MUHIM BO‘G‘INI

Jamol ASHUROV, xalq deputatlari Buxoro viloyati kengashi raisi:

— Buxoro viloyatida barcha sohada tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, yuqori va barqaror iqtisodiy o‘shishga erishish, aholi bandligini ta‘minlash va daromadini oshirish, ijtimoiy sohani rivojlantirish orqali aholi salomatligi hamda turmush darajasini yanada yaxshilash bo‘yicha keng qamrovli ishlar katta samara beryapti.

Birgina 2025-yilning birinchi choragida bu borada erishilgan natijalarni tahlil qilar ekanmiz, barcha sohada sezilarli o‘shish sur‘ati ta‘minlanganini ko‘ramiz. Masalan, viloyatimizda shu davrda yalpi hududiy mahsulot qiymati 14,6 trillion so‘mni tashkil etib, o‘shish sur‘ati o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 106

Ayni paytda bunday xayrli ishlar izchil davom ettirilayotir. Jumladan, investitsiya dasturi doirasida qurilishi rejalashtirilgan 74 ta obyektidan 72 tasida loyiha-smeta hujjatlari ishlab chiqilgan va ekspertizaga topshirilgan. Uy-joy qurish dasturi doirasida 725 xonadonli 17 ta ko‘p qavatli turar joy qurilib, foydalanishga topshirildi.

Aholini markazlashgan ichimlik suv bilan ta‘minlash darajasi bugun 74,3 foizni tashkil etmoqda. Yo‘l infratuzilmasini yaxshilash, aholi va iqtisodiyot tarmoqlariga uzluksiz elektr energiyasi yetkazib berish, aholining salomatligini asrash va ijtimoiy himoyasini kuchaytirishga yo‘naltirilgan ishlar qamrovi yildan yilga kengaymog‘da.

Bu boradagi xayrli ishlar bardavom bo‘lishida mahalliy kengash deputatlari faoliyati ham muhim. Zero, yurtimizdagi demokratik islohotlar jarayonida mahalliy kengashlar aholi va mahalliy hokimiyat organlari o‘rtasida faol muloqot uchun sharoit yaratishda tashabbuskor bo‘g‘inga aylanmog‘da.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizga muvofiq, mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari va ijro etuvchi hokimiyat organlari vakolatlari, mahalliy kengash raisi va hokim lavozimlari bir-biridan ajratilgani hokimiyatlar bo‘linishiga oid konstitutsiyaviy tamoyilning mahalliy darajada ijrosini ta‘minlashda muhim qadam bo‘ldi.

Hududlarda davlat maktabgacha ta‘lim tashkilotlarini tashkil etish, atmosfera holatiga ta‘sir ko‘rsatuvchi korxonalar, inshootlar, transport magistralari va boshqa obyektlarni qurish joylarini belgilash, ish o‘rinlarini tashkil etishga ehtiyojning dastlabki parametrlarini tasdiqlash, ichimlik suv ta‘minoti va oqova suvni chiqarib yuborish bo‘yicha xizmatlar uchun tariflarni belgilash, investitsiya faoliyatida eshituvlarni amalga oshirish, ilmiy faoliyatga oid hududiy dasturlarni tasdiqlash kabi 33 ta vakolat mahalliy hokimliklardan kengashlarga olib berildi. Bu esa ushbu masalalar bo‘yicha qarorlar xalq fikrini inobatga olgan holda qabul qilinishiga asos bo‘lmog‘da.

Ushbu yo‘nalishda viloyatimizda ham keng qamrovli ishlar bajarilyapti. Jumladan, joriy yilda xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlarining 52 ta sessiyasi o‘tkazilib, ularda hududlarni iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirish bilan bog‘liq 562 ta masala muhokama qilindi. Kengash faoliyatining ochiqligi va shaffofligini ta‘minlash maqsadida o‘tkazilgan barcha sessiya ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda to‘g‘ridan to‘g‘ri efriga uzatilib, chiqarilgan 524 ta qaror

ochiq platforma (“E-qaror”) tizimi orqali rasmiylashtirildi.

Davlat organlari va idoralar rahbarlarining hisobdorligini ta‘minlash maqsadida sessiyalarda 269 marotaba ijro organlari rahbarlarining hisoboti va axboroti muhokama qilingan. Mahalliy kengash deputatlari tomonidan hududda joylashgan davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining mansabdor shaxslariga ularning vakolatiga kiradigan masalalar yuzasidan asoslantirilgan tushuntirish berish talabi bilan 353 ta deputatlik so‘rovi yuborilgan. Davlat budjeti mablag‘idan maqsadli va samarali foydalanishni ta‘minlash, bu borada jamoatchilik ishtiroki va nazoratni kengaytirish maqsadida joriy yilda viloyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun ajratilgan 142,2 milliard so‘m xalq deputatlari viloyat kengashi qarorlari asosida yo‘naltirilib, ushbu mablag‘ hisobidan amalga oshiriladigan loyihalar ijrosi deputatlar tomonidan o‘z saylov okruglari bo‘yicha muntazam nazorat qilib borilmoqda.

Shuningdek, mahalliy kengashlar deputatlari tomonidan joylarda o‘tkazilgan o‘rganish va saylovchilar bilan uchrashuvlarda aniqlangan muammo va takliflar asosida viloyatdagi ijtimoiy soha obyektlarini rivojlantirish uchun tegishli mablag‘ yo‘naltirildi. Mazkur mablag‘ning maqsadli sarflanishi ham deputatlar tomonidan alohida nazorat qilib borilmoqda. Shu bilan birga, davlat va hududiy dasturlar bandlarining o‘z vaqtida, sifatli bajarilishi mahalliy kengashlar tomonidan doimiy o‘rganib borilmoqda.

Albatta, erishilgan har bir yutuq o‘zimizniki. Ammo hali qilinishi kerak bo‘lgan ishlar ham talaygina. Zero, hayot davom etar ekan, hududlarni rivojlantirish, aholining talab va ehtiyojini to‘la qondirish bo‘yicha yangi-yangi vazifalar ham paydo bo‘laveradi. Bu holatni o‘z vaqtida ilg‘ash uchun mahalliy kengashlar deputatlari doimo xalq ichida bo‘lishi lozim.

Qolaversa, mahalliy kengashlar vazirlik va idoralarning quyi bo‘g‘inlari, ayniqsa, tuman va shahar bo‘linmalari bilan joylarda yangicha yondashuv asosida ishlashi davr talabidir.

Faoliyatimizda ana shu jihatlar alohida e‘tibor qaratilmoqdamiz. Maqsadimiz — belgilangan ijtimoiy-iqtisodiy loyihalarni to‘la ro‘yobga chiqarish orqali viloyatimizni har jihatdan rivojlantirish va aholini rozi qilish. Buning uchun salohiyat, kuch va imkoniyat yetarli. Barchamiz o‘z ishimizni tanqidiy baholab, uni butunlay yangicha tashkil etish, vatan va xalq manfaatini yo‘lida yakdil va hamnafas bo‘lishga intilsak, ishonchim komilki, ko‘zlangan rejalarga, albatta, erishamiz.

“Yangi O‘zbekiston” muxbiri Bahor XIDIROVA yozib oldi.

DEPUTATLAR TASHABBUSKOR BO‘LSA, MUAMMOLARGA IJOBIY YECHIM TOPILADI



Ismigul XUSHMURODOVA, xalq deputatlari Qashqadaryo viloyati kengashi raisi:

— Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda yangi O‘zbekistonni barpo etishning siyosiy-huquqiy asoslarini yaratish bilan birga davlat va jamiyatni yanada rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari belgilab berildi. Xususan, hokimlarning xalq deputatlari viloyat kengashiga raislik qilish amaliyoti bekor qilindi.

Prezidentimiz Oliy Majlis Senatining o‘tgan yil noyabrda birinchi yig‘ilishida ushbu islohotlarning mazmun-mohiyati, ahamiyatini izohlar ekan, “Biz ushbu siyosiy islohot orqali xalqimizning 30 yillik orzusini ro‘yobga chiqardik, desak, ayni haqiqatni aytgan bo‘lamiz”, deb ta‘kidladi.

Darhaqiqat, xalq hokimiyatchiligini to‘laqonli ro‘yobga chiqarish, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholini ijtimoiy himoya qilishga oid dolzarb masalalarni hal qilishda mahalliy kengashlar faoliyati muhim o‘rin tutadi. Shu bois, so‘nggi yillarda mahalliy kengashlarning vakolati oshirildi. Ularning oldida hisobdor bo‘lgan mahalliy ijro etuvchi organlar tarkibi kengaytirildi. O‘z navbatida, mahalliy kengashlar ham bu imkoniyatdan oqilona foydalanib, jamiyatimizdagi islohotlar samaradorligiga hissa qo‘shmog‘da.

Viloyat kengashiga deputatlar orasidan saylangan deputatning rahbarlik qilishi kengashlarning jamiyat hayotidagi o‘rmini oshirish, deputatlarning mahalliy ijro organlari bilan samarali muloqotini yo‘lga qo‘yish, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish hamda aholi manfaatlarini himoya qilish borasidagi mas‘uliyatini oshirishga xizmat qilmoqda. Bugun xalq deputatlari Qashqadaryo viloyati kengashida 60 deputat shu yo‘nalishda faol ishlamoqda.

Xususan, “Kuchli kengash, hisobdor va tashabbuskor hokim” tamoyili asosida deputatlar faoliyatini samarali tashkil etish, saylovchilar bilan ishlash, aholi muammolarini o‘rganish va hal etishda “mahalla yetilligi” va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan izchil hamkorlikni yo‘lga qo‘yish masalalariga ham alohida e‘tibor qaratyapmiz. Xalq deputatlari viloyat kengashining joriy yil birinchi choragida bo‘lib o‘tgan sessiyalarida shu

yo‘nalishdagi 60 ga yaqin masala ko‘rildi. Hududiy va xalqaro hamkorlikdagi dasturlar ijrosi yuzasidan ta‘sirchan deputatlik nazoratini kuchaytirish, kengash faoliyatiga yoshlarni keng jalb qilish, ularning kengash qarorlarini qabul qilishdagi ishtirokini kengaytirish bo‘yicha qator ishlar bajarildi. Qonun ustuvorligini ta‘minlash, deputatlar va saylovchilar o‘rtasida samarali muloqot o‘rnatish maqsadida viloyat kengashi deputatlari tomonidan joriy yil 3 oyi davomida 71 marotaba uchrashuv o‘tkazilib, ularda aniqlangan 105 ta masalaning 88 tasi joyida hal etildi, qolgan 17 tasi nazoratga olingan.

Misol uchun, Chiroqchi tumanidan o‘tuvchi avtomobil yo‘lini rekonstruksiya qilish uchun loyiha-smeta hujjatlari ishlab chiqilib, mahalliy byudjetdan tegishli mablag‘ ajratildi. Bugun qurilish-ta‘mirlash ishlari boshlab yuborilgan.

Kriminogen vaziyati og‘ir mahallalarda xavfsiz muhit yaratish hamda aholi osoyishtaligini ta‘minlash maqsadida 35 ta mahallaning kirib-chiqish joyiga kuzatuv kameralari o‘rnatilyapti.

Saylovchilarning viloyat kengashiga murojaati asosida Qarshi tumanidagi Tumorchiq qishlog‘ida maktabgacha ta‘lim tashkiloti qurilishi boshlandi.

Hozir Qarshi shahridagi 31-maktabda 1667 o‘quvchi ta‘lim olmoqda. Bilim maskani serqatnov yo‘l bo‘yida joylashganini hisobga olgan holda o‘quvchilar xavfsizligini ta‘minlash uchun piyodalar qatnovini tartibga soluvchi svetofor va yo‘l belgilari o‘rnatildi.

Ko‘p qavatli uylar to‘laqonli isitilmayotgani, natijada qishda elektr energiyasi uchun katta miqdorda pul to‘lanayotgani xususida tez-tez murojaatlar bo‘ladi. Ushbu muammoga yechim topish maqsadida ularning issiqlik tizimini ta‘mirlash uchun mahalliy byudjetdan mablag‘ ajratilib, ta‘mirlash ishlari jadval bajarilyapti.

Shu yil may-iyun oylarida mahalla raisligiga saylov bo‘lib o‘tadi. Ayni paytda yuksak uyushqoqlikda boshlangan ushbu muhim siyosiy tadbirni milliy qonunchiligimiz va xalqaro andozalar asosida tashkil etishda mahalliy kengashlar ham faol ishlayapti. Bu galgi saylovlar yangicha demokratik tamoyillar asosida, ochiqlik va oshkoralik, fuqarolarning xohish va irodasini erkin ifoda etish prinsiplariga xos tarzda o‘tkazilmoqda.

Bu borada qonunchiligimizga kiritilgan o‘zgartirishlarga muvofiq, mahalla raisi saylovini o‘tkazish muddatini belgilash vakolati Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyat va Toshkent shahri kengashlariga o‘tkazilgan. Ushbu yangi tartib mahallalarning mahalliy vakillik organlari bilan samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘yishga yordam bermog‘da. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad mahalla raisi sayloviga tayyorgarlik tadbirlari, o‘tkazish muddati va tartibini belgilovchi vakolatlarni nomarkazlashtirishdir. Ayni kunlarda viloyatimizda bu tadbir ochiqlik, oshkoralik tamoyillari asosida tashkil etilyapti.

Oxirgi bir yilda elektr va gaz iste'moli uchun joriy etilgan ijtimoiy norma masalasi xalqimiz orasida asosiy suhbat mavzusiga aylandi. 200 kilovattlik ijtimoiy norma nihoyatda oz ekani borasidagi e'tirozlar ancha vaqtgacha kun tartibidan tushmadi. Bu masala hozir ham dolzarb, ammo ko'pchilik ijtimoiy normaning mohiyatini ancha tushunib oldi. Hatto elektr energiyasi uchun avvalgidek barcha iste'molchi bir xil tarifda emas, balki hamma foydalanganiga yarasha pul to'layotgani ijtimoiy adolatning bir ko'rinishi ekanini ham angalaymiz. Qator davlatlarda shunday norma amal qilishini ko'pchilik yaxshi biladi. Qolaversa, mutaxassislar bu norma qat'iy belgilangani, endi xizmat haqi faqat shu tartibda to'lanishini aytgacha, o'zimiz ham shunga ko'nikib qoldik.

Ijtimoiy norma bekor qilinmasa-da, to'lov summasi o'zgarib turishi bor gap. Ya'ni elektr energiyasi va tabiiy gaz narxi boshqa iste'mol mahsulotlariniki kabi oshib borish xususiyatiga ega. O'tgan yili mayda ilk bor elektr energiyasi va tabiiy gaz uchun joriy etilgan ijtimoiy norma bilan birga, narxi ham oshirilgan edi. 2019-yildan buyon oshmay kelgan elektr energiyasi narxi birdan 52,5 foiz ko'tarilgan. O'shanda elektr energiyasi narxi bir oyga 200 kilovattgacha — 450 so'm, 1000 kilovattgacha — 900 so'm etib belgilandi. Ushbu me'yor otirishi bilan narx ham o'sib boradi. O'tgan bir yilda ana shu narx asosida pul to'lab kelayotgandik.

Ammo joriy yil 1-maydan boshlab yurtimizda elektr energiyasi va tabiiy gaz uchun yangi tariflar belgilangandi. Shu bilan birga, iste'molchilar uchun "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ tomonidan yangi tariflarni hisoblash uchun "Elektr energiyasining iste'mol qilish kalkulyatori" ham yangilandi.

Endi elektr energiyasi uchun bazaviy me'yor bo'yicha 200 kilovatt-soatgacha 600 so'm (bungacha 450 so'm edi), 201 kilovatttdan 500 kilovatt-soatgacha 800 so'm, 501—1000 kilovatt-soat uchun 1000 so'm; tabiiy gaz uchun esa oyiga 500 kub metrgacha 1000 so'm (bungacha 650 so'm edi), 501—2500 kub metrgacha 1800 so'm pul to'lanadi. Energetika vazirligi ma'lumotiga ko'ra, grafkdagi o'zgarishlar aholi uchun yengilik yaratishga qaratilgan. Buni mutasaddinning o'zi izohlab, tariflardagi farqlarni tushuntirib bergani maqsadga muvofiq.

— Hukumatning o'tgan yildagi tegishli qaroriga 2025-yil 1-apreldan elektr energiyasi va tabiiy gaz narxi oshirilishi ko'rsatilgan edi, — deydi energetika vazirligi Axborot xizmati rahbari Hasan Toshxo'jayev. — Biroq davlatimiz rahbarining topshirig'iga asosan,

ELEKTR ENERGIYASI VA TABIIY GAZ TO'LOVIDA QANDAY O'ZGARISHLAR BOR?

narx oshirilishi muddati bir oyga — 1-maygacha kechiktirildi. Qolaversa, bir yil davomidagi o'rganishlar, aholining fikr va takliflari, e'tirozlari inobatga olinib, tegishli tashkilotlar bilan kelishilgan holda tariflarga o'zgartirish kiritildi. Xususan, 201 kilovatt-soatdan 1000 kilovatt-soatgacha bo'lgan differensiallashgan tarif bo'yicha iste'mol miqdori orasiga yangi ko'rsatkich kiritilmoqda. 2025-yil 1-maydan boshlab iste'molchilar 201 kilovatt-soatdan 500 kilovatt-soatgacha bo'lgan elektr energiyasi uchun 900 so'm emas, balki 800 so'mdan to'laydi. Avvalgi tartibga ko'ra, ishlatilgan elektr energiyasining 201 kilovatt-soatdan 1000 kilovatt-soatgacha bo'lgan qismi uchun 900 so'mdan haq to'langan.

Soddaroq tushuntirsak: masalan, bir oyda o'rtacha 500 kilovatt-soat elektr energiyasi iste'mol qiladigan xonadon avval 360 ming so'm to'lardi, endi ham to'lov miqdori o'zgarmaydi, ammo tariflar boshqacha taqsimlanadi: 200 kilovatt uchun 120 ming so'm, 300 kilovatt uchun esa 240 ming so'm. Ya'ni ular uchun narx oshayotgani yo'q. Hisob-kitoblarga ko'ra, aholining 88 foizi oyiga 500 kilovattgacha elektr energiyasi sarflashini inobatga olsak, ko'pchilik uchun narx o'zgarishsiz qolayotgani ko'rinadi. Narxlar oshishi asosan oyiga 501 kilovatttdan ko'p elektr energiyasidan foydalanadigan oilalar uchun seziladi. Shunda ham bu miqdor uchun hozirgacha 810 ming to'langan bo'lsa, endi bu summa 860 ming so'mga aylanadi. Ya'ni 50 ming so'm oshyapti. Bu kuniga taxminan 1600 so'mdan ko'shilyapti, degani. Xolis aytsek, shuncha miqdordagi elektr energiyasi sarflaydigan xonadon shunga yarasha to'lov imkoniyatiga ega. Boisi, 1000 kilovatt-soat elektr toki ishlatish uchun insonning uyida juda ko'p texnika bo'lishi kerak. Buni oddiy odamlar ham yaxshi chamalay oladi.

Cheklovmi yoki ijtimoiy adolat?

Yaqinda qiziqchi jamoalardan birining oxirgi konsert dasturini tomosha qildim. Mavzular orasida elektr energiyasi uchun belgilangan 200 kilovattlik ijtimoiy norma masalasi ham hajv qilingan. Sahnalashtirilgan tomoshada bir oila energiya iste'molini 200 kilovattlik normadan oshirib yubormaslik uchun chiroqsiz o'tirgani, elektr tokidan foydalanmayotgani ko'rsatiladi. Qizig'i, qo'shnilarinikida ham avhol shu. Elektr tokini tejash uchun ikki qo'shni futbol o'yinini bir taymdan bir-birining xonadonida ko'rishga keladi.

Tomoshabin sifatida meni bir jihat o'yaltirdi: biz qachondir ana shu "tejamkorlik"ka yetib kelishimiz kerak edi! Bu tejamkorlik qo'shnimiz yoki begonaning emas, o'zimizning cho'ntagimizga foyda ekanini ham yaxshi bilamiz. Qolaversa, biz tejamkorlik uchun tabiiy resurslar ertangi avlodlar uchun ham xizmat qilishi kerak.

Kun mavzusi

Shunday qilib, 2025-yil 1-maydan 2027-yil 1-aprelga qadar ehtiyojmand oilalarga elektr uchun oyiga bazaviy me'yor (200 kilovatt)dan ortiq foydalanilgan 150 kilovattgacha, gaz uchun noyabr — fevral oylarida bazaviy me'yor (500 kub metr)dan ko'p foydalanilgan 250 kub metrgacha, boshqa davrlarda esa 150 kub metrgacha ortiq foydalanilgan qismi uchun tegishli summa davlat tomonidan to'lab beriladi.

Kun davomida sarflayotganimiz suv — "suvtekin" deya oqizib qo'yiladigan obiyahotga qaraganimizda isrofgarchilikni haddan oshirganimiz yaqqol ko'rinadi. Tan olaylik: elektr energiyasi va tabiiy gaz bilan ham shunday avhol edi. Kerak-kerakmas qurilmami yoqib qo'yib, hech kim yo'q xonada televizor, havo sovitkich ishlab turadigan, kun bo'yi mikroto'lqinli pech, muzlatkich, choy qaynatkich kabi qurilmalar elektr manbaidan uzilmaydigan xonadonlar hozir ham bor. Bu ham har kunning ixtiyori, faqat iste'molga yarasha pul to'lanishi kerak.

O'zimizcha tahlil qildik: bir xonadon elektr energiyadan tejab foydalanmay boshqasi istalgancha qurilma ishlata, lekin ikkalasi ham bir xil narxda pul to'latsa, adolatdan bo'ladimi?! Bu bozor iqtisodiyotiga ham, ijtimoiy adolatga ham to'g'ri kelmaydi. Narxlar oshishi tarafdori emasman, biroq "iste'molga yarasha — to'lov" tizimini shakllantirish to'g'ri yechim, to'lovni teng elektr energiyasidan foydalanar ekan. Shunday vaqtda tabiiy resursni boshqalarga nisbatan ko'proq ishlatayotgan oila pulni ham shunga yarasha to'lashi adolatdek ko'rinadi.

Hozir jahon miqyosida energetika zaxiralari tobora kamayib borayotir. Shu bois, uni

besamar, isrofgarlik bilan ishlatish to'g'ri kelmaydi. Odamlarning elektr energiyasidan foydalanishga ehtiyojini bundan 10 yil oldingi vaziyat bilan taqqoslab bo'lmaydi. Keyingi yillarda bu talab kamida 35 foiz oshgan va oshishda davom etmoqda. 2030-yilga borib, mamlakatimiz iste'molchilarining elektr energiyasiga yillik talab 74 milliard kilovatt-soatdan 110 milliard kilovatt-soatgacha oshishi hisob-kitob qilingan. Shu bois, ushbu resursning muqobil manbalarini topish va joriy etish barobarida, tejamkorlikka katta e'tibor qaratilyapti.

"Yashil" energetikaga o'tish sa'y-harakatlari ham ancha jadal. Ma'lumotlarga ko'ra, hozir yurtimizda "yashil" energetika bo'yicha 4067 megavattlik quvvat ishlab turibdi. Joriy yilgi davlat dasturida yana qo'shimcha quvvatlarni ishga tushirish belgilangan. Qolaversa, aholi xonadonlariga quyosh panellari o'rnatish bo'yicha berilayotgan imtiyozlardan ham ko'pchilik xabardor. Yurtdoshlarimiz bu imtiyozlardan foydalanish barobarida, iste'molidan ortgan "yashil" energiyani davlatga sotyapti ham. Davlat tashkilotlari va korxonalar bosqichma-bosqich ana shu tizimga o'tyapti. Umuman, O'zbekiston o'z oldiga 2030-yilga borib "yashil" energiya hajmini 54 foizga yetkazishni maqsad qilgan.

Hozirgi narx ham xarajatni qoplamaydi

Energetika vazirligi ma'lumotiga ko'ra, bugun O'zbekiston aholining elektr energiyasiga talabini to'liq ta'minlay oladi. Hatto ortganini eksport qilish darajasiga yetgan. Xo'sh, u holda hududlarda elektr energiyasi uzilishi bilan bog'liq muammolar sababi nimada, degan savol paydo bo'ladi. Unga javoban mutasaddilar yetkazib berish, infratuzilma bilan bog'liq masalalarni vaj qilib keltiradi. Bularni tartibga solish, tizimni doimiy isloh qilish uchun ham elektr energiyasi to'lovi ishlab chiqarish xarajatiga mutanosib bo'lishi kerak.

Mutaxassislarimiz aytishicha, O'zbekiston elektr energiyasi narxi arzonligi bo'yicha jahonda 7-o'rinda turadi. Shu vaqtgacha ishlab chiqarish xarajatlarning asosiy qismi davlat subsidiyasi asosida qoplangan. Hozir 1 kilovatt elektr energiyasining tanarxi, ya'ni ishlab chiqarish xarajati qo'shilgan qiymat solig'i bilan 1002 so'm. Me'yor bo'yicha o'rnatilgan to'lov summasi ham elektr energiyasi ishlab chiqarish, yetkazish, taqsimlash xarajatini to'liq qoplamaydi. Shunga qaramay, aholining birlamchi ehtiyoji va zarur miqdori inobatga olgan holda 200 kilovattgacha elektr energiyasi uchun imtiyozli, subsidiyalangan narxlar taqdim etilgan.

— Keling, buni oyiga 500 kilovatt-soatgacha elektr energiyasi ishlatadigan aholi qatlami misolida tahlil qilib ko'ramiz, — deydi Hasan Toshxo'jayev. — Shuncha miqdordagi me'yor uchun oyiga 360 ming so'm to'lanadi, ammo ishlab chiqarish xarajati 500 ming so'mdan oshadi. Demak, davlat hali ham aholiga 140 ming so'm subsidiya beryapti. Yillar davomida yurtimizda elektr energiyasi narxi arzon bo'lgani haqida gapiramiz, ammo shunga yarasha tizimda ham islohotlar bo'lmagan. 2023-yilgacha deyarli katta ishlar qilinmagan, mablag' yetishmagan. Aynan 2023-yildagi qahraton qish energetika sohasidagi asl vaziyatni ko'rsatib qo'ydi. Shundan keyin davlatimiz rahbari topshirig'i bilan sohaga 2 marotaba qariyb 1,5 milliard so'mdan mablag' ajratildi. Buning samarasini odamlar qisqa muddatda ko'ra boshladi. Aytaylik, ikki yil oldin elektr energiyasidagi uzilish holati 3-3,5 soatda tuzatilgan bo'lsa, hozir 1 soatgacha qisqardi. Avariyaalar soni kamaydi, tarmoqlar muntazam yangilanyapti. Toshkent shahrining o'zida o'tgan ikki yilda 20 mingga yaqin transformator almashtirildi, 50 ming kilometrga yaqin havo uzatish tarmog'i yangilandi. Bunday ishlar barcha hududda qilinayapti. Birgina misol: Andijon viloyatining chegara hududdagi Marhamat tumanida 2016-yildagi va bugungi holatni solishtirsangiz, aholining o'zi katta

farq borligini aytadi. Oldinlari hududda kunlab elektr toki o'chardi. Hozir

2 soat o'chsa, aholi darrov e'tiroz bildiradi. Bu to'g'ri yo'li, odamlar muammolari aytishi kerak. Biz esa ularni bartaraf etamiz. Chunki asosiy maqsadimiz aholiga barqaror, ishonchli va uzluksiz elektr energiyasi yetkazib berishdan iborat. Yangi tarif tufayli olingan mablag' shu maqsadga yo'naltiriladi. Zero, mahsulot narxi uni yetkazib berish va ko'rsatiladigan xizmat xarajatini qoplashi kerak, bozor talabi shunday.

Kompensatsiya kimlarga beriladi?

Avvalboshdan ijtimoiy norma aholi tomonidan sotib olishda qo'llanadigan imtiyozli tarif ekani aytilgandi. Ya'ni energiya muayyan me'yorgacha nisbatan past (imtiyozli) va bu me'yordan yuqori iste'mol uchun bozor narxida sotiladi. Hozirgi tariflar bo'yicha 200 kilovattlik me'yor imtiyozli va bu aholining barcha qatlamiga qo'llanadi.

Endi bunga qo'shimcha boshqa imtiyoz haqida ham to'xtalsak. Kuni kecha davlatimiz rahbarining tegishli qarori bilan ehtiyojmand aholiga davlat tomonidan gaz va elektr energiyasi to'lovlarida alohida yordam — yil davomida kompensatsiya beriladigan bo'ldi. Avvallari bunday yordam faqat qish mavsumida berilgan.

Shunday qilib, 2025-yil 1-maydan 2027-yil 1-aprelga qadar ehtiyojmand oilalarga elektr uchun oyiga bazaviy me'yor (200 kilovatt)dan ortiq foydalanilgan 150 kilovattgacha, gaz uchun noyabr — fevral oylarida bazaviy me'yor (500 kub metr)dan ko'p foydalanilgan 250 kub metrgacha, boshqa davrlarda esa 150 kub metrgacha ortiq foydalanilgan qismi uchun tegishli summa davlat tomonidan to'lab beriladi.

Joriy yil mart oyi holatiga ko'ra, O'zbekistondagi kam ta'minlangan oilalar soni 746 ming 149 ta. Ehtiyojmand oilalar qatoriga esa, avvalo, ijtimoiy himoya yagona reyestriga kiritilganlar kiradi. Ya'ni birgalikdagi oylik daromadi teng taqsimlanganda 669 ming so'mdan kam chiqqan oilalar ushbu tizimga kiritilgan. Kompensatsiya to'lab beriladigan keyingi talabgorlar esa kambag'al oilalar reyestri ro'yxatidagilardir. Bu tizimga oilaning bir oylik daromadi taqsimlanganida, 1 million 155 ming so'mdan kam chiqqan oilalar kiritiladi. Shuningdek, ikkala reystrga ham kirmagan, ammo mol-mulki kam va oylik daromadi har bir oila a'zosiga taqsimlaganda 1 million so'mdan kam bo'lgan oilalarga gaz va elektr to'lovi uchun kompensatsiya to'lanadi.

Iroda TOSHMATOVA, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



“Yashil” energetika

QANCHA KO'P TEJASAK,

SHUNCHA SAMARALI FOYDALANAMIZ

SAMARQAND IQLIM FORUMI
4-5 APREL 2025

Prezidentimizning 2022-yil 2-dekabrda "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori qabul qilinishi ana shu dolzarblikni yumshatishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir. Chunki shu hujjat asosida katta marralar ko'zlanib, bu borada maxsus vazifalar, dasturlar belgilab olindi.

Issiqxona gazlarining yalpi ichki mahsulot birligiga nisbatan solishtirma ajratmalarini 2010-yildagi darajadan 35 foiz qisqartirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ishlab chiqarish quvvatini 15 gigavattga va ularning ulushini elektr energiyasini ishlab chiqarish umumiy hajmining 30 foizdan ko'prog'iga yetkazish, sanoat sohasida energiya samaradorligini kamida 20 foiz hamda yiliga 200 million dona ko'chat ekib, ular sonini 1 milliarddan oshirish orqali shaharlardagi yashil maydonlarni 30 foizdan ortiqroqqa kengaytirish shular sirasiga kiradi.

Joriy yil 26-martda Prezidentimiz huzurida energiya resurslarini iqtisod qilish, iste'mol samaradorligini oshirish hamda ularidan oqilona foydalanish chora-tadbirlari bo'yicha bo'lib o'tgan yig'ilishda yirik sanoat korxonalarida energiya tejovchi qurilmalar o'rnatish hamda energiya isrofini kamaytirish bo'yicha aniq choralar ko'rish va 2025-yilda

1,1 milliard kub metr gaz, shuningdek, 2,6 milliard kilovatt-soat elektr energiyasini tejashga oid vazifalar belgilandi.

Ekologiya bo'yicha Parij bitimiga muvofiq, O'zbekiston iqtisodiy o'sishni saqlagan holda 2030-yilga qadar issiqxona gazlari tashlanmalarini 2010-yildagiga nisbatan 10 foiz qisqartirishga jiddiy kirishgan. Bunga dalil sifatida keyingi yillarda yirik qayta tiklanuvchi energiya manbalari (shamol va quyosh fotelektr stansiyalari) ishga tushirilgani hamda 2030-yilga borib "yashil" energiya ulushi 40 foizga yetkazilishi reja qilinganini keltirishimiz mumkin. Yangi loyihalar elektr ta'minotidagi barqarorlikni ta'minlash bilan birga atrof-muhit va ekologiyani yaxshilashga to'liq xizmat qiladi.

Energiya resurslari bilan barqaror, kafolatli ta'minlash barobarida undan unumli foydalanish va samaradorligini oshirish bo'yicha ishlarni izchil davom

ettirish maqsadida Bosh vazir rahbarligida Energiya samaradorligi va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish masalalari bo'yicha respublika komissiyasi tashkil etilgan. Komissiyaning asosiy faoliyati yurtimizdagi barcha sohalarda energiya samaradorligini oshirishga qaratilgan ustuvor vazifalarning so'zsiz bajarilishini ta'minlash va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan keng foydalanishni tashkil etish hamda har bir chorakda erishilgan natija, shuningdek, mavjud kamchiliklarni izma-iz bartaraf qilib borishdan iborat.

Aprel oyi boshida Samarqand shahrida ikkita katta anjuman — "Markaziy Osiyo — Yevropa Ittifoqi" birinchi sammiti va Xalqaro iqlim forumi bo'lib o'tdi. Ko'plab nufuzli mehmonlar ishtirok etgan forumda Prezidentimiz nutq so'zlab, "Yashil makon" loyihasi doirasida keng qamrovli ishlar qilinayotgani, ya'ni ko'kalamzorlashtirish, Orolbo'yida qurg'oqchilik va sho'rga

chidamli o'simliklar ekilganini bildirib, daraxt ekish bo'yicha "Markaziy Osiyoning yashil belbog'i" aksiyasini o'tkazishni taklif etdi. Markaziy Osiyoning asosiy suv manbasi bo'lgan Amudaryo va Sirdaryoning suv hajmi 2040-yilga borib keskin kamayishini e'tiborga olib, suv taqchilligi o'z ta'sirini ko'rsatishini alohida qayd etdi. Shuningdek, bu borada amalga oshirish zarur bo'lgan bir qancha takliflarni ilgari surdi. Jumladan, Markaziy Osiyoda suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etish borasida sa'y-harakatlarni birlashtirish va mintaqaviy dasturni ishga tushirish, muzliklar holatini sun'iy yo'ldosh orqali uzluksiz kuzatish va mintaqaning tog' ekozizimlari uchun xavflarni erta aniqlash bo'yicha "Kopernik" dasturi doirasida Yevropa Ittifoqi bilan hamkorlik qilish kabi takliflar ishtirokchilar tomonidan ma'qullandi.

Bundan tashqari, sessiya subhatlarida chet ellik iqlim ekspertlari tomonidan O'zbekistonda keyingi yillarda suv resurslaridan unumli foydalanish, yo'qotishlarni kamaytirish hamda iqlimning salbiy o'zgarishlariga qarshi keskin choralar ko'rilayotgani, tegishli dasturlar qabul qilinish, ishlar izchil davom etayotgani alohida e'tirof etildi.

O'zbekiston energetika tizimining asosiy bo'g'ini hisoblangan "O'zbekiston milliy elektr tarmoqlari" AJ elektr stansiyalarida hosil qilingan elektr energiyasini o'zining 11 ming 773,9 kilometr magistral elektr tarmoqlari orqali hududlarda joylashgan yirik podstantsiyalarga uzatgan holda qo'shni davlatlarning energiya tizimi bilan hamkorlik qilib kelmoqda. Bunda elektr energiyasini uzatishda elektr tarmoqlaridagi texnologik yo'qotishlar ortib ketmasligi va belgilangan me'yorda bo'lishi asosiy ko'rsatkich hisoblanadi.

Jamiyat tomonidan texnologik yo'qotishlar ulushini qisqartirib borish va energiya samaradorligini oshirish borasida tegishli loyihalar ro'yobga chiqarilishi hamda podstantsiyalardagi modernizatsiya va rekonstruksiya ishlari izchil davom ettirilishi natijasida 2021-2024-yillarda magistral elektr tarmoqlaridagi yo'qotishlar sezilarli darajada kamaydi.

Buning omillari talaygina. Jumladan, magistral elektr tarmoqlarining har bir havo tarmog'i va podstantsiyasidagi texnologik yo'qotishlarni hisoblash yo'li bilan aniqlab chiqish hamda amaldagi yo'qotishlar bilan taqqoslab borish, ortib ketgan taqdirda uning zudlik bilan bartaraf etilishi, elektr energiyasi qabulidagi va uzatishdagi o'lchov asboblari soz holatda ushlab turilishi, aniqlik darajasiga e'tibor qaratilishi, podstantsiyalar modernizatsiya qilinishi hamda DXSH asosida ishga tushirilayotgan quyosh, issiqlik va shamol elektr stansiyalarining yangi yuqori kuchlanishli tarmoqlar orqali mavjud tizimga ulanishi ham ijobiy ta'sir ko'rsatyapti. Shuningdek, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan keng foydalanish maqsadida markaziy boshqaruv binosi va viloyatlarda joylashgan barcha ma'muriy binolarda jami quvvati 753 kilovatt bo'lgan quyosh panellari o'rnatilib, "yashil" energiya hosil qilingan holda iste'molning oziqchasi tomon, shahar elektr tarmoqlariga uzatib kelinmoqda.

Iqtisodiy-texnik ko'rsatkichlarini yanada yaxshilash maqsadida raqamlashtirish loyihalariga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Jahon banki ishtirokida amalga oshirilayotgan "Elektr energetika sektorini transformatsiya qilish va barqaror elektr uzatish" loyihasi, "Dispatcherlik nazorati va ma'lumotlarni yig'ish" bo'yicha yangi texnik-dasturiy kompleks (SCADA) hamda "Elektr energiyasi oqimini boshqarish" tizimi (EMS) ni joriy etish choralarini shular sirasiga kiradi. 2030-yilgacha asosiy bajariladigan ishlar ko'lami belgilanib, aniq chora-tadbirlar asosida munosib ko'rsatkichlarga erishish harakatlari strategiyasi tashqiqlangan. Energiya resurslarini tejash, ishlab chiqish va uzatishda samaradorlikka erishish eng ustuvor vazifaga aylanmoqda.

Salim ESHONQULOV, "O'zbekiston milliy elektr tarmoqlari" aksiyadorlik jamiyati boshqarma boshlig'i o'rinbosari



MA‘RIFIY JAMIYATNING VIJDONI ERKIN, ETIQODI MUSTAHKAM BO‘LADI

Nuqtayi nazar



Insoniy qadriyatlar va ma‘naviy hayot ulug‘lanadigan, vijdon erkinligi, diniy bag‘rikenglik barqaror bo‘lgan jamiyat jadal rivojlanadi. Ya‘ni ma‘naviy barkamol jamiyatda diniy bag‘rikenglik ustuvor bo‘ladi. Bu o‘z-o‘zidan ahillik, birdamlikka xizmat qiladi. Shu ma‘noda, yurtimizda xalqni rozi qilishga qaratilgan siyosat zamirida vijdon erkinligini ta‘minlashga alohida e‘tibor berilayotgani bejiz emas. Chunki inson huquqini kafolatlash orqali rivojlanish, Uchinchi Renessansni barpo etishday yuksak marraga erishish oson kechadi.



Xusniddin AHMEDOV,
siyosiy fanlar doktori,
professor

Keyingi yillarda yurtimizda ma‘naviyat va ma‘rifatga e‘tibor kuchayib, davlat siyosatining muhim yo‘nalishiga aylangani kishini quvontiradi. Xususan, Prezidentimizning shu yil 21-apreldagi “Fuqarolarning vijdon erkinligi huquqi kafolatlarini yanada mustahkamlash hamda diniy-ma‘rifiy sohada islohotlarni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni sohada islohotlar yangi bosqichga chiqqanidan dalolat beradi. Mazkur tarixiy hujjat haqida so‘z borar ekan, sohadagi qator ustuvor jihatlarni e‘tirof etish kerak.

Birinchidan, yurtimizda xilma-xil diniy e‘tiqodga ega insonlarning bir zaminda yagona xalq bo‘lib, ezgu g‘oya atrofida hamjihatlikda yashashi bag‘rikenglikning yorqin namunasidir. Prezidentimiz ta‘kidlaganidek, “Bizning qadimiy va saxovatli zaminimizda ko‘p asrlar davomida turli millat va elat, madaniyat va din vakillari tinch-totuv yashab kelgan. Mehmondo‘stlik, ezgulik, qalb saxovati va tom ma‘nodagi bag‘rikenglik bizning xalqimizga doimo xos bo‘lgan va uning mentaliteti asosini tashkil etadi”.

Chuqur o‘ylanang milliy va diniy siyosat tufayli yangi O‘zbekiston bugun dunyo mamlakatlari uchun bag‘rikenglikni o‘zida mujassam etgan mamlakat sifatida namuna bo‘lyapti.

Bugun yurtimizda 130 dan ortiq millat va elat hamda 16 ta konfessiya vakillari tinch-totuv yashamoqda. Islohotlar samarasida diniy soha vakillarining ijtimoiy hayotdagi roli ortib boryapti. Xususan, bugungi kunda O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan diniy tashkilotlar soni 2356 taga yetib, shundan 2159 tasi islomiy, 197 tasi boshqa konfessiyalarga tegishlidir. So‘nggi sakkiz yilda O‘zbekistonda jami 130 ta — 3 ta oliy va 1 ta o‘rta maxsus islom bilim yurti, 102 ta masjid hamda turli konfessiyaga taalluqli 24 ta noislomiy

diniy tashkilot davlat ro‘yxatidan o‘tkazildi. 2017-yilga qadar mamlakatimizda 1 ta oliy (Imom Buxoriy nomidagi Toshkent islom instituti) hamda 11 ta o‘rta maxsus diniy ta‘lim muassasasi (9 ta islomiy, 2 ta xristian) faoliyat yuritgan. Bugun esa 16 ta diniy ta‘lim muassasasi bor, ularning 4 tasi oliy o‘quv yurtidir.

Ikkinchidan, keyingi yillardagi islohotlar tufayli jamiyatimizda fuqarolarning vijdon erkinligi va diniy bag‘rikenglik, millatlararo

Bundan tashqari, BMT tomonidan O‘zbekiston tashabbusi bilan ishlab chiqilgan “Ma‘rifat va diniy bag‘rikenglik” rezolyutsiyasi qabul qilindi, 2019-yildan beri 16-noyabr — Xalqaro bag‘rikenglik kuni yurtimizda haftalik tarzida keng nishonlanmoqda. Qolaversa, 2023-yildan boshlab aholi o‘rtasida dinlararo va konfessiyalararo hamjihatlik, totuvlik va bag‘rikenglikni mustahkamlash, diniy-ma‘rifiy soha rivojiga ulkan hissa qo‘shgan insonlar “Diniy bag‘rikenglik” ko‘krak nishoni bilan taqdirlanib kelinmoqda. Shularning o‘ziyoq mazkur sohadagi islohotlar mazmunini ochib bera oladi.

Uchinchidan, shiddat bilan o‘zgarib borayotgan bugungi murakkab sharoitda dunyoda sodir bo‘layotgan voqea-hodisalar mamlakatimizda “Inson manfaatlari hamma narsadan ustun”, degan xalqchil tamoyilga asoslangan islohotlar to‘g‘ri ekanidan dalolat bermoqda.

Prezidentimiz ilgari surgan ezgu tashabbuslardan biri — inson qadri tamoyili har



bir inson e‘tibor va e‘zozga munosib ekani, vijdon erkinligi masalasi esa e‘tiqod qilish yoki qilmaslik borasidagi tanlov va hurfiylikni ifoda etadigan oliy darajadagi qadriyat ekanini anglatadi.

O‘tgan yillar davomida “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi qonun takomillashtirildi. Ammo sohaga Prezident darajasidagi e‘tibor yangi O‘zbekiston sharoitida amalga oshdi. 2018-yil 16-aprelda tariximizda ilk bor Prezidentning “Diniy-ma‘rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni qabul qilindi. Ulkan ijobiy o‘zgarishlarga asos solgan hujjatda “Jaholatga qarshi ma‘rifat” g‘oyasi sohaning ustuvor vazifasi etib belgilandi. Ilm-ma‘rifat bilan barcha masalalarni hal etish ma‘nosini o‘zida ifoda etgan mazkur ezgu tamoyil mamlakatimizning barcha hududida tizimli faoliyat sifatida yo‘lga qo‘yildi.

To‘rtinchidan, keyingi yillarda yurtimizda vijdon erkinligi va diniy sohada davlat siyosati takomillashdi. Bu fuqarolarning e‘tiqod erkinligini kafolatlash va buyuk ajdodlarimizga har jihatdan munosib etib tarbiyalashga xizmat qilmoqda.



surilgan konseptual yondashuvlar nafaqat mamlakat ichida, balki xalqaro maydonda ham e‘tirof etilyapti.

Mamlakatimizda fuqarolarning dini, e‘tiqodi, milliy mansubligi, ijtimoiy kelib chiqishidan qat‘i nazar, huquq va qonuniy manfaatlari to‘liq ro‘yobga chiqarilmoqda. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot yo‘li insonlarning dinga munosabatidan kelib chiqib ustunlik bermaslik, kamsitishga yo‘l qo‘ymasdan vijdon erkinligini kafolatlash, deya belgilab olindi.

Xususan, davlatimiz rahbarining shu yil 21-apreldagi “Fuqarolarning vijdon erkinligi huquqi kafolatlarini yanada mustahkamlash hamda diniy-ma‘rifiy sohada islohotlarni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni, bir tomondan, ushbu yo‘nalishdagi islohotlar uchun muhim hujjat, ikkinchidan, sohaga Prezident darajasida berilayotgan doimiy e‘tiborning muhim namunasi bo‘ldi. Zero, u orqali davlat va din munosabatlari ochiqchiligi, shaffofligi, diniy tashkilotlarning huquqiy maqomini mustahkamlash, shuningdek, diniy-ma‘rifiy faoliyatni ilmiylik, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tashkil etish kabi ustuvor vazifalar belgilab berildi.

Beshinchidan, ushbu farmon bilan fuqarolarning vijdon erkinligini ta‘minlash va diniy-ma‘rifiy soha faoliyatini takomillashtirish va uni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishning qator ustuvor yo‘nalishlari belgilandi. Xususan, jamiyatda diniy bag‘rikenglik va konfessiyalararo totuvlikni yanada mustahkamlashga oid ilg‘or mexanizmlarni joriy etish ko‘rsatib berildi. Qolaversa, ilm-fan va jahon sivilizatsiyasi rivojiga ulkan hissa qo‘shgan buyuk ajdodlarning insonparvarlik, ezgulik, tinchlik, bag‘rikenglik kabi umuminsoniy g‘oyaga asoslangan diniy-falsafiy merosini chuqur o‘rganib keng targ‘ib etishga alohida e‘tibor qaratildi. Fikrimizni “Moturiylik — bag‘rikenglik, mo‘tadillik va ma‘rifat ta‘limoti” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya o‘tkazilgani ham tasdiqlaydi.

Bundan tashqari, sohada kadrlarni tayyorlashga ham jiddiy e‘tibor berilmoqda. Maqsad aholi orasida birdamlik, o‘zaro hurmat

va mehr-oqibat ruhini kuchaytirishdir. Bu borada ijtimoiy-ma‘naviy muhit barqarorligini ta‘minlashga qaratilgan dolzarb ilmiy tadqiqotlar qo‘llab-quvvatlanmoqda. Natijada sohada xalqaro hamkorlik munosabatlari yanada rivojlanib boryapti. Buning barchasi yurtimizda turli millatlar, konfessiyalar va din vakillari o‘rtasida do‘stlik va totuvlik muhitini yaratishga qaratilgan ishlar yanada samarador bo‘lishiga qaratilgan.

Oltinchidan, mazkur farmon O‘zbekistonning inson huquqlari, xususan, vijdon erkinligi bo‘yicha o‘z zimmasiga olgan majburiyatlarini amalda bajarayotganini yaqqol namoyon etdi. Unda yurtimizda vijdon erkinligini kafolatlash, diniy bag‘rikenglik, fuqarolararo totuvlik hamda ijtimoiy-ma‘naviy muhit barqarorligini ta‘minlash maqsadida “Bag‘rikeng jamiyat —barqaror davlat” tamoyili asosida Din ishlari bo‘yicha qo‘mita bilan O‘zbekiston mahallalari uyushmasi, Ichki ishlar vazirligi, Yoshlar ishlari agentligi hamda Oila va xotin-qizlar qo‘mitasining yangi hamkorlik tizimini yo‘lga qo‘yish zarurligi ta‘kidlandi. Maqsad aholi, xususan, yoshlar orasida ulug‘ ajdodlarimizga xos bag‘rikenglik va do‘stona munosabatlarni mustahkamlash, shu orqali O‘zbekiston aholisining dini, e‘tiqodi, milliy mansubligi, ijtimoiy kelib chiqishidan qat‘i nazar, huquq va qonuniy manfaatlarini muttasil va ishonchli ta‘minlashdir. Bunga erishish uchun jamiyatda vijdon erkinligini davrimizga xos tarzda kafolatlashi shart. Mazkur hujjat shunga xizmat qiladi.

Yettinchidan, har bir sohada bo‘lgani kabi diniy-ma‘rifiy sohada ham yetuk kadrlarga ehtiyoj bor. Hozir diniy va dunyoviy bilimlarni chuqur egallagan, jahonda bo‘layotgan voqea-hodisalarni baholay oladigan shaxslar juda zarur. Chunki ular umumbashariy muammolarning salbiy ta‘siriga qarshi kurashishni yaxshi biladi. Oldimizga ana shunday yoshlar safini kengaytirish vazifasi turibdi. Shu maqsadda O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi huzurida 2019-yildan beri faoliyat ko‘rsatayotgan Malaka oshirish markazi Diniy-ma‘rifiy sohada malaka oshirish va qayta tayyorlash institutiga aylantirildi. Bu ma‘rifiy hayotimizda juda katta quvunchli

“Global dunyo har soniyada o‘zgarib, tuslanib bormoqda. Yot g‘oyalar targ‘iboti ham zamonga moslashib, o‘zgarmoqda. Ularga qarshi turib, jamiyatni birdamlikka chaqiradiganlar zamondan bir qadam oldinda yurishi kerak bo‘ladi. Shuning o‘ziyoq institutning oldida qator muhim vazifalar borligidan dalolatdir.

voqea bo‘ldi. Xalqimiz, ayniqsa, soha vakillari mazkur yangilikni ko‘tarinki kayfiyatda qarshi oldi.

Institut islomshunoslik, dinshunoslik, davlat va din munosabatlari asoslari, shuningdek, radikalashuvning oldini olish yo‘nalishlarida diniy soha mutaxassislarining malakasini oshiradi va qayta tayyorlashga mas‘ul muassasa hisoblanadi.

Global dunyo har soniyada o‘zgarib, tuslanib bormoqda. Yot g‘oyalar targ‘iboti ham zamonga moslashib, o‘zgarmoqda. Ularga qarshi turib, jamiyatni birdamlikka chaqiradiganlar zamondan bir qadam oldinda yurishi kerak bo‘ladi. Shuning o‘ziyoq institutning oldida qator muhim vazifalar borligidan dalolatdir.

Ochiq‘ini aytilish kerak, hozirga qadar Malaka oshirish markazi sifatida faoliyat yuritgan mazkur muassasa auditoriyalar yetishmasligi, tinglovchilar uchun turar joy masalasida qator mushkulliklarni boshdan kechirib kelgan. Mazkur farmon esa bu muammolarga birgina band bilan yechim beradi. Tashkil etilgan yangi institutga barcha ehtiyojlari uchun yetarli bo‘lgan alohida bino ajratilgani fikrimizning yaqqol isbotidir.

Davlatimiz rahbarining “Barchamiz uchun Vatan bitta. Bizni yagona, ulug‘ bir maqsad birlashtiradi. U ham bo‘lsa, yurtimiz tinchligi, Vatanimiz taraqqiyoti, xalqimiz farovonligidir”, degan so‘zlari terna fikrni har bir ziyolini doim hushyor va sergak turishga, zamon bilan hamnafas bo‘lib, yurt uchun xizmat qilishga undaydi.

Shunday ekan, biz, pedagog kadrlar jamoasi jamiyat tinchligi, vatan ravnaqi yo‘lida hamisha izlanishda bo‘lishimiz lozim. O‘zbek xalqi uchun xayrli bo‘lgan ushbu farmon vatan tinchligi va osoyishtaligi yo‘lida ayni vaqtda, o‘ta teran mulohazalar bilan e‘lon qilingan muhim hujjat sifatida tarix zarvarqalaridan joy oladi. Bu, o‘z navbatida, mazkur hujjatda belgilab berilgan vazifalarni ado etish uchun zimmamizga ulkan mas‘uliyat yuklanganidan dalolat beradi.

Mehnatim ortidan qadr topyapman. Ayni kunda qo‘shimcha ishlab chiqarish uskunalari xarid qilish orqali faoliyatimizni yanada kengaytirishni ko‘zlab turibman.

Do‘rmon qishlog‘ining chekka bir hududida ochilgan “Do‘rmon svet brend” pishiriqlar tayyorlash markazida ishlab chiqarilayotgan turfa shirinliklar elga manzur. Shu kunga qadar qishloqda pishiriqlar tayyorlash yo‘nalishida tadbirkorlik subyekti bo‘lmagan. Mahsulot xarid qilish zarurati tug‘ilsa, tuman markaziga borishga majbur bo‘lingan. O‘dinaxon Mamadaliyeva asos solgan loyiha bu boradagi ovoragarchiliklarga barham berdi.

Joriy yilning shu kuniga qadar ishsizligi sabab “Ayollar daftari”ga kiritilgan 34 xotin-qizning bandligi ta‘minlandi, — deydi “Do‘rmon” mahalla fuqarolar yig‘ini xotin-qizlar faoli Muhabbatxon Ahrorova. — Birgina “Mehron” ayollar va bolalar markazi bilan ishlab chiqilgan 4 ta tadbirkorlik loyihasi xalqaro grant g‘olibi bo‘lib, 20 dan ortiq yangi ish o‘rni yaratildi. Natijada qishloq ayollari uchun yangi imkoniyat eshiklari ochildi, ularning bandligini ta‘minlash orqali turmush sharoitini yaxshilash, ijtimoiy himoyaga muhtoj ayollarni tadbirkorlikka yo‘naltirish borasidagi tashabbuslar kundan kunga ortib bormoqda.

Do‘rmondan qaytar ekanimiz, hayoti, turmushi yaxshilanyotganidan xursand, ertangi kunidan ko‘ngli to‘q ayollarning mamnun chehrasi, tashabbuslari, ish amallaridan bahra olidik.

Rasuljon KAMOLOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri



Bandlik

Quyosh uyg‘onmay
turib supur-sidirmi
boshlagan, sigir sog‘ib,
farzandlariga nonushta
tayyorlaboq dalaga
oshiqqan, qaytishida
chorva uchun bir etak
o‘t ko‘tarib qaytgan
ayolning azoblanishi
o‘sha kezlari oddiy holat
bo‘lib qolgandi go‘yo.
Haqiqatan, ularning joni
qirqtami, toshdanni?

Sobiq tuzum ayollarimizni shunday hayot tarziga majbur qilgandi. Ular farzand ko‘rish, tarbiyalash, oila xo‘jaligini yuritish bilan cheklangan edi. Uydan ko‘cha hatlamay, boriga ko‘nikib yashashga mahkum qilingandi ular. Bu oddiy qishloq ayolining o‘tmish hayot tarzi bilan bog‘liq ayanchli voqealar.

Bugun vaziyat, ayollarning hayot tarzi o‘zgardi. Yurtdoshlarimiz ongu tafakkuri yuksalmoqda, ertangi kunga umidi mustahkamlanib, turmushi farovonlashmoqda. Ularga hurmat ko‘rsatish, hayotini yengillashtirish, jamiyatning faol va to‘laqonli a‘zosi sifatida emin-erkin yashashi, tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlashga e‘tibor oshdi.

Chekka qishloqlarda ham yuqori texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarish tarmoqlarini boshqarib, oilasi,

hamqishloqlari koriga yarayotgan tashabbuskor ayollar safi kundan kunga ortib bormoqda.

Qo‘shstepa tumanidagi Do‘rmon qishlog‘ida yashovchi mohir tikuvchi Shohista Isoqovaning faoliyati bilan tanishib, bunga yana bir bor amin bo‘ldik. Oddiy, kamtar, kamsuqum qishloq ayoli Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi, Jahon bankining Yaponiya ijtimoiy taraqqiyot jamg‘armasi hamkorligidagi “Qishloq ayollarining iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish” loyihasida g‘olib bo‘lib, tadbirkorlik loyihasi uchun 132 million 800 ming so‘m grantga ega bo‘ldi. Mahalladagi eski bino ta‘mirlanib, “Dormon future ladies” jamoasiga asos solindi.

Bir paytlar tandiru o‘choq boshidan chiqmaydigan, o‘ziga oro berishga vaqt topolmagan Shohistaning hayot tarzi butkul o‘zgaribdi. Mo‘jazzina ishxonada o‘ndan ortiq tikuv uskunasi o‘rnatilgan. Unga yelkadosh bo‘lib mehnat qilayotgan 5 tikuvchi ham mahalladoshlari, maslakdosh dugonalari. Bu yerda “ustoz-shogird” an‘anasi yo‘lga qo‘yilgan. Tikuvchilikka qiziqqan xotin-qizlar shu yerda malaka va mahoratini oshiryapti.

Yoshligimdan tikuvchi bo‘lishni orzu qilganman, — deydi Shohista. — Ammo kerakli uskuna, xomashyolar uchun mablag‘, tadbirkorlik qilish uchun bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lmaganim boisi, bu ishini boshlashga imkon topa



olmayotgandim. “Mehron” ayollar va bolalar markazi tomonidan ijtimoiy daftarga kirgan xotin-qizlar uchun tashkil etilgan bepul o‘quv kurslari biz uchun yangi imkoniyat eshiklarini ochdi. O‘zim kabi uyda o‘tirgan ishsiz xotin-qizlar bandligini ta‘minlash borasida taqdim etgan biznes loyiham xalqaro tashkilot tomonidan qo‘llab-quvvatlangani ayni muddao bo‘ldi. Tikuvchilik bilan shug‘ullanib, ko‘pning koriga bakor

kelyapman, daromad topib oilamning kam-ko‘stiga yordamlashyapman. Ilk bor farzandlarimga shirinlik olib ulashganim, ularning quvunch-shodliklari hamon ko‘z o‘ngimda. O‘g‘lim Abdujamal Farg‘ona shahridagi imkoniyati cheklangan bolalar maktabida tahsil oladi. Qizim Zarnigor tuman markazidagi musiqa va san‘at maktabida rassomlikdan ta‘lim olib, ilk yutuqlarni qo‘lga kiritganidan boshim osmonga yetdi. Bular bizga berilgan

imkoniyat, imtiyozlarning samarasi deb bilaman.

Oila bekasi shu tariqa ijtimoiy daftarga kirgan oilalar ro‘yxatidan chiqdi. U endi ish beruvchi, kashib-hunarga o‘rgatuvchi hunarmand sifatida ko‘pga bosh-qosh. Vaqt topib tomorqa yumushlari bilan mashg‘ul bo‘ladi. Do‘rmon qishlog‘ida uzumchilik rivojlangan, o‘tgan mavsumda bundan 30 million so‘mdan ortiq daromad qildi.

Shohista va uning dugonalari qalb qo‘ri bilan tikilgan turfa liboslarga boqaman. Tabiiy xomashyo, jilvakor ranglar ko‘zni quvnatib, dilni yayratadi. Momomeros ko‘hna kasb sirlarini ulug‘lab, oddiy matodan mo‘jizalar yaratayotgan chevar qishloq ayollari mahoratiga tahsinlar aytamiz beixtiyor.

Keyingi manzil Havoxon Vohidova xonadoni bo‘ldi. Boquvchisi yo‘q oila bekasi yaqinlari ko‘magida yangi uyga ko‘chib chiqibdi. Uydagi shart-sharoit ishlab chiqarishga qulayligini hisobga olib, “Nafosat shaydolari” MCHJga asos solib, 108 million so‘m imtiyozli kreditga paypoq to‘qish va tikuv jihozlari olib, bir vaqtning o‘zida 4 xotin-qizni ishli qilibdi.

Yurtimizda hunarmandu tadbirkorlar uchun keng imkoniyatlar yaratib berilayotganidan foydalanib, paypoq to‘qish va tikuvchilik sirlarini o‘rgandim, — deydi Havoxon. — Qo‘shni ayollar bilan kasanachilik asosida ham ishlayapmiz.

